

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**N.I. SAYDULLAYEVA**

**BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA‘LIM  
TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING  
KREATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

(Uslubiy qo‘llanma)

**TOSHKENT - 2022**

**UO‘K  
KBK**

**N.I.Saydullayeva. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.** -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022. 132 bet.

**ISBN 978-9943-**

Mazkur uslubiy qo‘llanma bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosiga qaratilgan.

Uslubiy qo‘llanmada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar hamda bo‘lajak tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari, kreativ kompetentlikning muhim jihatlari, zaruriyati, oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishning asosiy tamoyillari, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda axborot kompyuter texnologiyalarining o‘rni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar va texnologiyalar haqida yoritilgan. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga integrativ yondashuvga alohida e’tibor qaratilgan. Oliy ta’lim muassasasida talabalarni kelgusidagi kasbiy faoliyatlariga ijodiy yondashuvini hamda kreativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni, metodologik asoslari, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl va uslublari, bo‘lajak tarbiyachilar kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida ota-onalarni kreativ yondashuvga o‘rgatishning amaliy tashkiliy ishlari yoritilgan.

*Mas’ul muharrir:*

**D.D. Sharipova** - p. f. d., prof.

*Taqrizchilar:*

**J.A. Hamidov** - p.f.d., prof.;

**G.E. Kushakova** - p.f. f. d., (PhD) dots.

**ISBN 978-9943-**

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022.

## **KIRISH**

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy

qadriyat va an'analarimizga, jahon mamlakatlarining ilg'or tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish va shu yo'lda qator islohotlarni amalga oshirish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari oldiga barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularni maktab ta'limiga har tomonlama tayyor, zamon talabariga mos ravishda jismoniy, aqliy intellektual, ijodiy va shu kabi qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil Vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qiladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifa qilib qo'yilgan. Shunday ekan, zamon talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish malakasi, qisqa qilib aytganda, tarbiyachilarning o'zlarida kreativ kompetentlik rivojlangan bo'lishi kerak. Zero, o'zi kreativ salohiyatga ega bo'lmagan tarbiyachi yoki mutaxassis bolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirilmaydi. Zamona-

viy sharoitda har bir shaxsning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish va rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Jamiyat ijtimoiy faol a'zolarga, kreativ va ijodkor shaxslarga shoshilinch ehtiyojni boshdan kechirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi - ijtimoiy ahamiyati, yangiligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan inson faoliyati va mustaqil

faoliyatining oliy shaklidir. Ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarining tabiatiga bo'lgan qiziqish fan va texnikaning rivojlanishi va ularning oldida tobora murakkablashib borayotgan muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan tarbiyachilarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq holda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisini individual kasbiy rivojlantirish, uning ma'naviy, ijodiy va kreativlik salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarish oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tegishli tarzda modernizatsiya qilish zarurligini belgilab berdi. Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda.

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasasi talabalari va o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta'lim mazmuniga, o'qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullariga hamda ta'lim va tarbiya jarayonida talabalar va o'qituvchilar orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Shunga binoan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini o'qitishda ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yangilash, qo'shimchalar kiritilishi nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarini ijodiy va erkin fikrlovchi muammoli ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ sifatlarni shakllantirishga va amaliy mashg'ulotlarda kreativ kompetentlikni rivojlantiruvchi metod va texnologiyalar asosida tashkil etish qolaversa, integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan bo'lishligi kutilayotgan natijaga samarali erishishda maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

## **1- mavzu. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda olib boriladigan Davlat siyosati**

Jahon miqyosida pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida inson hayoti davomida egallaydigan barcha ma'lumotining 70%ini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi o'z isbotini topgan. Darhaqiqat, bu davr mobaynida bola dunyoni idrok qilishni boshlaydi, fikrlaydi, atrof-olam bilan tanishadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin tayyorlaydi. Shuning uchun ham yurtimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va tarbiyachilarining o'rnini beqiyosdir.

Zamonaviy jamiyat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sohasi uchun yangi vazifalarni qo'yadi, faoliyatning sifatiga qaratilgan yosh avlodni maktabga tayyorlab berishning yangi darajasini talab qiladigan davlat standartlari joriy etilmoqda. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy salohiyat darajasi va kompetentligini rivojlantirish, tarbiyachi va butun ta'lim tashkilotlari raqobatbardoshligi tamoyilini joriy etish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan etib belgilanmoqda. Ta'kidlash joizki, zamonaviy tizimda maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilarining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga qo'yiladigan talablar ko'tarilib, pedagog ijodiga katta e'tibor va bu ijodkorlikning pedagogik faoliyatida namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim jarayonining asosiy qismi tarbiyachi va tarbiyachilarining bola bilan kundalik hamkorligi, unga xulq-atvor meyorlarini ko'rsatish va turli bilim va ko'nikmalarni o'rgatishdir va bu jarayonda yetakchi rol tarbiyachiga aloqadorligini ko'ramiz.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - maktabgacha ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun ham so'nggi yillarda qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilmoqda. Chunonchi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorda ham “Ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta‘lim sifatini oshirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish zarur [4]” deb alohida uqtirib o‘tilgan.

Shu ma'noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 30-dekabr kuni matbuotda e‘lon qilingan “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu tashkilotlardagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta‘minlash bilan bir qatorda pedagog va tarbiyachilarining malaka darajasini yuksaltirishga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev nafaqat qonun hujjatlariga ma‘lum o‘zgartirishlar kiritdi, balki maktabgacha ta‘limga bo‘lgan munosabatni ham o‘zgartirdi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish Prezidentimiz tomonidan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasida alohida “Maktabgacha ta‘lim vazirligi” paydo bo‘lib, aynan maktabgacha ta‘lim tizimi bilan shug‘ullanadi. 2017-yil sentabr oyida O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim vazirligi” tashkil etilganidan buyon:

- maktabgacha ta‘lim sohasining me‘yoriy-huquqiy bazasi qayta ko‘rib chiqildi:

- erta va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga oid yangi davlat talablari tasdiqlandi;

- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan maktabgacha ta‘lim bo‘yicha o‘quv dasturi ishlab chiqildi va ishga tushirildi.

UNICEF xalqaro ekspertlari bilan hamkorlikda Janubiy Koreyaning ilg‘or xorijiy tajribasidan kelib chiqqan holda, erta va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo‘yiladigan davlat

talablari hamda maktabgacha ta'lim bo'yicha "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etildi.

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 19-oktabrdagi maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ta'kidlaganlaridek: "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunda kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi".

Hukumatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha tubdan rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, shuningdek, eng ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan. Shu qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan PQ-2707- son "2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 3-iyuldagi Maktabgacha ta'lim Vazirligining 3032-son " O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqidagi ", 2019-yil 16-dekabrda PQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" Qonuni, 2019-yil 8-maydagi PQ 4312-son "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2020- yil 6-noyabrdagi " O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida 7 ta'lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari

to'g'risida"gi PF 6108-son farmon va shu kabi qarorlarining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayoniga salmoqli yangilanishlar kiritilishiga xizmat qildi. Mazkur islohotlar izchil davom ettirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish;

- 2022 - 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlar- ning malakasini oshirish;

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish kabi yuksak maqsadlar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasida Harakatlar strategiyasining barcha vazifalarini amalga oshirish doirasida infratuzilmani rivojlantirish, vazifalarni tizimli ravishda boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion dasturlarni ishlab chiqishga qaratilgan maxsus ta'lim dasturi asosida faoliyat yurituvchi bir qator maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etildi. Shu bilan birga, hozirda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilmiy-metodik ta'minlashni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan maktabgacha ta'lim sohasida qo'yilgan vazifalarning aksariyati pedagoglarning kasbiy kompetentligi va ta'lim tizimidagi boshqaruv salohiyati bilan bog'liq.

Ta'kidlab o'tilganidek, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik 8



materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu konsepsiyani 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi. Konsepsiya o'rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. «Qabul qilingan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tengi yo'q hisoblanadi: birinchidan, mazkur hujjatda erishilgan natijalarning o'lchanishini ta'minlaydigan aniq, maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Xususan, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha orttirish vazifasi qo'yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta'lim tashkilotlari quvvatlarining kuchaytirilishi davom ettiriladi. Keyingi yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga alohida e'tibor qarati- ladi. Ishlar ikki yo'nalishda olib boriladi: pedagoglar miqdorini orttirish va maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlashda, qayta tayyorlashda, malakasini oshirishda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish. Konsepsiya bilan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar Respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi, hamda ushbu natijalarga erishish uchun qay miqdorda pul mablag'larining zarurligi to'g'risidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadi», - deb ta'kidlab o'tdi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va strategik rivojlantirish bosh boshqarmasi boshlig'i Yelena Ten.

Qabul qilingan Konsepsiyaga ko‘ra maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

- maktabgacha ta‘lim sohasidagi me‘yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish (Maktabgacha ta‘limning davlat standartini ishlab chiqish, MTT tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari bilan ta‘minlash normativlarini tasdiqlash, muqobil maktabgacha ta‘lim shakllarini amalga oshirish tartibini ishlab chiqish);

- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish («Ilk qadam» davlat dasturini va inklyuziv ta‘limni keng miqyosda tatbiq etish, o‘quv materiallarini ishlab chiqish, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limning bog‘liqliligini ta‘minlash);

- qamrovni orttirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta‘lim olishlari uchun teng huquqlikni ta‘minlash, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish (yangi MTTlarni qurish va eskilarini rekonstruksiya qilish, bepul bir yillik maktabga tayyogarlikni keng miqyosda tatbiq etish, muqobil maktabgacha ta‘lim shakllarini rivojlantirish, respublikadagi barcha MTTlarni kommunal xizmatlar bilan bosqichma-bosqich ta‘minlash);

- innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish (axborot ma‘lumotlar bazasini va multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish, uy ta‘limi va ota-onalarning ma‘lumot olishi uchun raqamli ta‘lim resurslarini tatbiq etish, respublikaning barcha MTTlarini kompyuterlar bilan ta‘minlanishini va Internet tarmog‘iga ulanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish);

- maktabgacha ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning shaffofligini va samaradorligini ta‘minlash (samarali monitoring mexanizmlarni yaratish, manfaatdor shaxslar-ga ma‘lumotlarni taqdim etish, muomalalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, chet el investitsiyalarini va grantlarini jalb qilish, me‘yoriy kishi boshiga moliyalashtirishni birin-ketin tatbiq etish);

- kadrlarni tanlashda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish (xalqaro ta‘lim standartlarini tatbiq etish, chet el 10 ekspertlarini jalb qilish va chet elga tajriba orttirish safarlarini tashkil etish, xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini

ishlab chiqish, kadrlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish);

- MTTlarda bolalarning sog'lom va muvozanatli ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash (MTTlarni mahsulotlar bilan ta'minlanishining markazlashtirilgan monitoring tizimini yaratish, autsorsing shartlari asosida maxsuslashtirilgan korxonalarni jalb qilish, alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kompleks yordamni takomillashtirish).

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasi tarbiyachilari tomonidan yo'lga qo'yilgan innovatsion tizimda tarbiyachi boladan yuqori emas, balki u bilan birga, ta'lim muhiti ichida bo'lishi kerak. Barcha ta'lim jarayonlari o'yin shaklida amalga oshirilishi va bilim o'yin shaklida uzatilishi kerak. Bu bolaning o'rganish uchun motivatsiyasini oshiradi, u o'zini qulay va erkin his qiladi. Bu bolaga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, unda asosiy e'tibor bolaga qaratilgan. Maktabgacha va asosiy ta'limning uzluksizligida ota-onalar bilan hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan birgalikda ota-onalar yig'ilishlari; davra suhbatlari, muhokama uchrashuvlari, ota-onalar konferensiyasi, savol-javob kechalari; maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar; ochiq kunlar; ijodiy ustaxonalar; anketalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari uchun o'quv o'yinlari treninglari va mahorat darslari, biznes o'yinlari, seminarlardir. Oldinlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarni parvarish qilish va nazorat qilish uchun mo'ljallangan bo'lsa, endi ular ta'lim va tarbiyaga e'tibor qaratiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga aylangan.

Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab - eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy yetukligi va kreativ potensialga egaligi ta'lim sifatini oshirish uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z masuliyatini samarali anglashga, ta'lim-tarbiya 11

jarayoniga ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillash- tirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi.

Shuningdek, tarbiyachining kreativligi, hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan ijodiy yondashuvi bolani har tomon- lama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o'z-o'zidan shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarini tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan ham o'quv jarayoniga mazmunan va shaklan yangiliklar kiritishni, ta'lim jarayoniga kreativlikni olib kirishni taqozo etadi. Bu kabi islohotlar o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak tarbiyachilarining kreativ- lik kompetentligini shakllanishiga turtki bo'ladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish ularning kelgusida kasbiy faoliyatlarida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda hamda ta'lim sifati va samaradirligini oshirishda zamin bo'ladi. Aytib o'tish joizki, tarbiyachining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, guruh ham shunday bo'la oladi. Pedagogning ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

## 2- mavzu. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari

III-renesans davrida maktabgacha ta'lim sohasining rivojlantirish va taraqqiy topishida yuqori malakali maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilariga bo'lgan ehtiyoj va talab ortib bormoqda. Ayniqsa, mutaxassislik fanlarining fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor tarbiyachilarini tayyorlash talab etilmoqda. Oliy ta'lim tizimida mazkur talablarga javob bera oladigan, sifatli ko'nikmalarga ega bo'lgan talaba shaxsini shakllantirish imkoniyati vujudga kelmoqda. Buning uchun oliy ta'lim tizimida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlashga yo'naltirilgan o'qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni keng qo'llashga talab ortib boradi. Shuningdek, XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jahalalariga, shu jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga ham ko'plab yangiliklar kirib kelmoqda.

Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo'llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan, pedagogika ya'ni ta'lim-tarbiya sohasida so'nggi yillar ichida quyidagi tushunchalar keng qo'llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste'molida keng ishlatilmoqda:



Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to‘x talib o‘tmoqchimiz.



**Kreativlik** so‘zi (inglizcha “create” yaratuvchanlik, ijodkorlik) so‘zidan olingan bo‘lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil omili sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.

Bugungi kunda dunyo miqyosida to‘rtinchi sanoat tamaddu-ning dvigateli-harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga nazar tashlasak har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelish mumkin: virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, elektron xizmatlar, tuproqsiz hosil olish... bularning barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Odatiy bo‘lib tuyulgan kitob, musiqa, samolyot va hattoki lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi natijasida yaratilgan. Shu boisdan, hozirgi zamon pedagogikasida “**kompetentlik**” tushunchasi bilan bir qatorda “**kreativlik**” tushunchasi ham tez tez qo‘llanilmoqda. Har bir maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N. Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan “kompetensiya” atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo‘yicha Bern shahrida bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996-yil) “kompetensiya” tushunchasi “o‘quv”,

“kompetentlik”, “qobiliyat”, “mahorat” singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta'lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv e'tirof etildi.

**Kompetentlik** - kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari shuki, kompetentli muta- xassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo'lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o'zi yetarli bo'lmay, uni jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.



Shu bilan birga “**kreativ kompetentlik**”, “**kreativ salohiyat**”, “**kreativ qobiliyat**” tushunchalariga aniqlik kiritishda xorijiy adabiyotlarga murojaat qilishadi va ko'proq keyingi tushunchani pedagogik kadrlarda rivojlantirishga urg'u berishadi.



”**Kreativlik** - bu inson aqliy salohiyatining yuksak darajasi hisoblanib, obyektidagi aloqadorliklarni tahlil qilish va o'zgartirish asosida yangi mazmunni yaratadi”.

“**Kreativlik** - bu alohidalik emas, balki mahsuldor (produktiv) tafakkurga tegishli shaxsiy qobiliyat bilan taqozalangan umumiy qobiliyatdir” .

“**Kreativlik** - bu shaxsning egallagan tajribani idrok qilish va anglash qobiliyatidir”.

“**Qobiliyat** - individual-psixologik alohidalik bo'lib, subyektiv shartlar orqali muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir”. Qobiliyat individning bilim, ko'nikma va malakalari

bilangina tavsiflanmaydi, balki faoliyat usullarini egallashning tezkorligi va mustahkamligini ham qamrab oladi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda qobiliyatni muayyan faoliyat turi bo'yicha shakllantirish alohida o'rin egallaydi. Kreativlik qobiliyat sifatida andoza bo'yicha ishlamaslikni, mustaqil o'zgartirishga ijodiy yondashishni taqozo etadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotari tarbiyachilarining ijodkorligi esa u tomonidan kelgusida tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

**Kreativ kompetentlik** esa - pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish qobiliyatidir.

---

**Pedagogik kreativlik** - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish va bo'lajak mutaxassislarni kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratishni kafolatlay olishi zarur.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli bolalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar bo'lajak tarbiyachilarini erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.



Kreativlik tushunchasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

**J. Gilford** (1950) kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

fikrining ravonligi;

fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;

o'ziga xoslik (originallik); qiziquvchanlik;

farazlar yaratish qobiliyati; xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

Ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalani ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Respublikamiz olimlari tomonidan kreativ o'qitishning falsafiy, kasbiy va kreativ kompetentlikning psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ko'p qirrali xususiyatlari tavsifi bo'yicha bir qancha izlmiiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, pedagog olimlar

O. Musurmonova, N. Egamberdiyeva, Sh. Sharipov, Sh. Shodmonova, N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sharipova, A. Aripjanova, G. Ibragimova, G. Qodirova va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida o'rganilganda kreativlikni shakllantirish masalasi F. Barron, E. Torrance, D. Harrington, E. Hui, R. Sun, A. Maslow, M. Wallach, N. Kogan, D. MacKinnon, K. Urban, P. Стеренберг, С. Талер, С. Mednick va bo'lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantirish masalalari Bronson, Merriyman, Ken Robinson Fisher, Frey Begetto, Kaufman, Ali, Treffinger, P. Drapeau va boshqalar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda ko'rish mumkin.

Psixologiyada ham qator olimlar tomonidan ushbu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir tadqiqotlar olib borilgan:

A. Yu. Agafonov, Yu. Lotman, V. Rudnev G. S. Batishev, M. M. Baxtin, D. B. Bogoyavlenskaya, V. M. Vilchek, V. Diltey, V. N. Drujinin, D. A. Leontbev, A. Maslou, A. A. MelikPashaev, I. Meyerson, A. Ya.Ponomarev, M. Rorbax, S. L. Rubinshteyn, V. Frankl, R. Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir.

**G.N.Ibragimovaning** tadqiqot ishida kreativlik-shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmuyi bo'lib, u o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi deya ta'kidlangan.

**A.A.Aripjanova** esa kreativlikni o'rganish bo'yicha pedagog faoliyatining o'ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini, faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqish lozimligini aniqlagan.

**N. Muslimovning** tadqiqot ishlarida pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etishi, qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'lishi haqidagi qarashlarni ko'rishimiz mumkin.

**Sh. Pozilovanning** olib brogan tadqiqot ishlarida kreativlikni pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabat, o'zaro ta'lim oluvchi yoki ma'lum bir vosita orqali ta'lim oluvchi orasidagi jarayon bo'lib, u shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi, degan ta'rifni ko'ramiz.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida G.Alshuller, T.Barisheva, Yu. Volkova, Dj. Gilford, Yu. Jigalova, A. Podberezkin, Ye. Podguzova, T. Ogorodova. E. Panova, S.Lapasev, N.Stepanenko, E.Shelestova, T. Kiseleva va boshqa qator olimlar kreativlikni shakllantirishning ta'lim muhitiga ta'siri yuzasidan salmoqli ilmiy izlanishlar olib borishgan.

**A.I.Ostroumov** va **O.F. Ostroumovalar** o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativ o'qitish-o'quv jarayonining subyektlari tomonidan kreativlik xususiyatlarini yaratilishidir, deb ta'riflaganlar.

**A.V. Kostryukov** va **D.V. Miroshnikova** pedagogik faoliyatda kreativlikni paydo bo'lishi ko'lami yetarlicha keng va buni pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatida, pedagogik xulq-

atvorida va o'qitish metodikasida, materialni tanlashda ko'rish mumkinligini haqida fikr yuritganlar.

**B. Jefrey** va **A. Kraft**, **J. Rinkevich**, **L. Tanggard** va **V. Glaveanu** hamda **Z. Sierra** kabi olimlar kreativlik nafaqat intellektual potensialni, balki motivatsiya, estetik rivojlanish darajasi, ekzistensial, kommunikativ parametrlar hamda **kompetentlik** bilan ham bog'liq bo'lgan tizimli psixik qobiliyatligini aniqlashgan.

Ma'lumki, bo'lajak tarbiyachilar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari zarur:

- kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi;
- kreativlik sifatlari;
- kreativ fikrlash ko'nikmalari;
- amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish malakalari, xususan, ixtisoslashgan (pedagogik) kreativlikni ta'minlovchi malakalar.

Jumladan, kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror

topganligi ularda kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyatini, shaxs kreativligining ijtimoiy pedagogik zaruratini anglash va to'g'ri baholay olish;

- o'ziga nisbatan ishonch, o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy rivojlantirish ehtiyojining qaror topganligi;

- kreativ faoliyatga yo'nalganlik, jamiyatda va kasbiy faoliyatda o'zining mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lish istagining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. Pedagoglarning kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanib boradi.

P. Torrens (1987) fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

- farazni tekshirish va o'zgartirish;

- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlar

Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" - deb ta'rif beradi. Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ talaba bo'lish - bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa talabalar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy

tarzda chiqib ketish demakdir. Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash, va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig'ishga asoslanganligi tufayli an'anaviy ta'lim sistemasi har doim ham shaxsning, xususan, talabaning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko'pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo'ladi. Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo'lishi lozim. Kelajakda ijodiy qobiliyatlardan foydalanish uchun ta'lim jarayoniga ta'lim jarayoniga maxsus topshiriqlarni kiritish zarur.

Hozirda yuzdan ortiq faktorlar o'rganilgan, ularning diagnostikasi uchun alohida testlar tanlab olingan. Gilfordning bu boradagi konsepsiyasi AQSHda pedagoglar tomonidan iqtidorli bolalar va o'smirlar bilan ishlashda keng qo'llanilib kelmoqda. Ularning asosida faktorlarni ratsional rejalashtirish va qobiliyatlarning rivojlanishiga yo'naltiruvchi dasturlar yaratilgan. Olimlar Gilfordning asosiy yutug'ini uning tafakkurni divergent va konvergentlarga ajratib berganligida deb hisoblaydilar.

Pol Torrens (1987) kreativlikni tafakkur terminlarida ta'riflab, ijodiy tafakkurni "qiyinchiliklar, muammolar, axborotdagi kamchiliklarni his qilish; shu kamchiliklarning gipotezlar tuzilmasi, ularni tekshirish va baholash, qayta ko'rish hamda tekshirish, va nihoyat, natijalarni umumiyashtirish" sifatida tushunadi. Torrens bolalar kreativligini shakllantirish dasturini, "yosh bolalardan kattalargacha" kreativlikni aniqlash testlarini yaratdi. Umuman olganda, kreativlik - bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyutsion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi: - muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; - farazni tekshirish va o'zgartirish; - qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; - muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning - o'zaro qarama-qarshiligiga

nisbatan ta'sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin .

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini bilish mayllari, ehtiyojlari, faolligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, nostandart tafakkur, improvizasiya kabilar tashkil etib, ular bevosita shaxsning yo'nalganligi va kreativ qobiliyatlari bilan uyg'unlashadi. Oliy ta'lim muassalaridagi ta'lim jarayonida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlashning asosiy vazifasi esa, bo'lajak tarbiyachilarning mana shu ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish va samarali metodik ta'minotni vujudga keltirishdan iborat.

Pedagogning kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:




Kreativlik tarkibiy komponentlari:

1. Intellektual (aqliiy);
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).



Pedagogning kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

Kreativ layoqat quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladi:



Maktabgacha ta'lim sohasida bir qator tadqiqotlarni tahlil qilganimizda, maktabgacha ta'limni tashkil etishning jahon standartiga javob beradigan mutaxassis uchun kreativlikni aniqlash va rivojlantirish mezonlarini joriy etish ularning ijodkorlik jarayonisiz, ish funksiyalarisiz amalga oshirilmaydi degan xulosaga kelinadi:

- Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bolalar bilan ijodiy o‘zaro munosabatlarga tayyor bo‘lishi kerak, lekin uning ijodiy salohiyati, qobiliyatlari, to‘plangan bilim, ko‘nikma, tajriba va ijodiy pozitsiyalarda o‘zini o‘zi anglashga asoslangan bo‘lishi kerak.

- Pedagogning ijodiy salohiyatini shakllantirish jarayoni kompetentlik, samaradorlik, o‘z-o‘zini takomillashtirish tamoyillari bilan shartlanadi va murabbiy lavozimida rivojlanadi.


- Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining murabbiy sifatida kreativ kompetentligi o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan intilishda, bolani shakllantirishda qo‘llab-quvvatlashga va unga namuna bo‘lishga tayyorlikda, bolalarda ijodiy qobiliyatlarni yuzaga chiqarishda, ta'lim va tarbiya jarayonida noana'naviy metod va texnologiyalardan foydalangan holda samaradorlikka erishishida,

hamkorlikni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi.

- O‘yin texnikasi sifatida tarbiyachining kreativligi o‘yin faoliyatini rivojlantirishda, o‘yin zaxirasini oshirishga intilishda, o‘yin faoliyatida, bolalar uchun o‘yin maydonini yaratish qobili- yatida amalga oshiriladi.

- Tarbiyachining rejissyor sifatidagi kreativ qobiliyati ertak-dramatizatsiya yoki bayram yaratish uchun ertak terapiyasi usullaridan foydalana bilishda amalga oshiriladi. Har qanday tarbiyachi o‘zida kreativlik sifatlarini namoyon etishi kerak.

Kreativlik sifatleri quyidagilar sanaladi:



Amerikalik psixolog K. Teylorning fikriga ko‘ra kreativ shaxsning xususiyatlari quyidagilardir:

- tavakkal qilish;
- faollik, qiziquvchanlik;
- izlanishdagi charchash, mavjud an'analar va usullardan noro - zilik va shuning uchun ishlarning hozirgi holatini o‘zgartirish istagi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kreativlik sifatleri quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

- 2 shaxsiy-ijodiy yo‘nalganlik;
- 2 tavakkalchilikka moyillik;
- / fantaziya va ijodiy tasavvurning yuqoriligi;



---- z mustaqillik;

---- z murakkab kasbiy vazifalarni hal etishdagi nostandart tafakkur tarzi;

intellekt darajasi (IQ);

eruditsiya, intuitsiya; refleksiya;

—z tafakkur tezligi, fikrlash ravonligi; moslashuvchanlik;

=^> o‘ziga xos (original) fikrlar, g‘oyalarni ilgari sura olish bilan

—z

—z

asoslanadi.

Mashg‘ulotlarda pedagoglar “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
- 2) talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘z- lashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija.

Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divirgent turiga ajratdi.

**Konvergent tafakkur** - (lotincha convergere – “bir yo‘ldan”) tafakkur formasi bo‘lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to‘g‘risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi.

**Divergent tafakkur** – (lotincha divergere – “bo‘linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo‘lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini toppish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarga izlanish, ya’ni bir muammoga bir nechta to‘g‘ri javoblar borligini va original ijodiy g‘oyalarning tug‘ilishiga xizmat qiladi. Divergent tafakkurning asosida kreativlik yotadi.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalari ulardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda harakatga keltiruvchi kuch sanaladi. Aynan mazkur ko‘nikmalar ijodiy faollik, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat uchun yo‘naltira olish, nostandart tafakkur tarzini shakllantira olish, muammolarga nisbatan sezgirlik, intellektual qobiliyatlar, hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlar, konstruktivlik, innovasiyalar transformasiyasi bilan bog‘liq divergent tafakkur tarzining shakllanishiga xizmat qiladi.


Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo‘lmaslik;


2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko‘ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir:

## Turlari




Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir tarbiyachining shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potentsiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:



Bo‘lajak pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi:

## Metodlar



Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:


- **kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshish;**
- **yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘r- satish;**
- **ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;**
- **hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish**

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala

yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Kreativlik potensial ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:



**Kreativlik** - bo'lajak pedagoglarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun bo'lajak pedagoglar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

Bo'lajak pedagoglar kreativlik rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va bo'lajak pedagoglar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo'rqish hissi mavjud bo'lajak pedagoglarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni

odatga aylantirish, bo'lajak pedagoglarning o'qishdagi muvafaq-qiyat va o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirish faqatgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo'llash orqali va sog'lom muhitdagina erishish mumkin.

Shuningdek, kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:



1. Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish;
2. Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o'rgatish;
3. Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish.
4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomon- lardan tahlil qilishga o'rgatish;
5. Tez o'zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish uchun zarur bo'lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.



---

### **3- mavzu. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish**

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash dunyoviy ta'lim tizimining yanada rivojlanib borayotgan asosiy tendensiyalaridan biri deb qaraladi. Bugungi kunda bir qator mamlakatlarda talabalarning o'quv va ijodiy faollik- larini rivojlantiruvchi hamda ta'lim tarbiya jarayonini samarador- ligini kafolatlovchi interfaol metodlarni qo'llash yuzasidan katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Ta'lim jarayonida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassis- laning ijodiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan metod va innovatsion texnologiyalardan

foydalanish bo'lajak tarbiyachilarini kreativlik ko'nikmalarini aniqlashga va kreativ pedagog sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda bir qator mamlakatlarda talabalarning ijodiy faolliklarini rivojlantiruvchi hamda ta'lim tarbiya jarayonini samaradorligini kafolatlovchi interfaol metodlarni qo'llash yuzasidan katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan kiritilmoqda.

**Ta'lim metodi** - pedagogning bo'lajak pedagoglar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Ma'lumki, ta'lim metodining turli klassifikatsiyasi mavjud. Bu klassifikatsiya talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlanishida asosiy o'rinni egallaydi.

Ijodiy faoliyat metodlarining ana shunday klassifikatsiyasi sifatida quyidagilar qabul qilinishi mumkin:

**1. Og'zaki metodlar** - ijodiy suhbat;

- inglizcha “inter” - “o‘zaro”, “act” - harakat qilmoq”  
so‘zlaridan olingan bo‘lib, birgalikda harakat  
qilmoq, degan ma‘no anglatadi

“Interfaol” -

Metod -

-biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, usullari, yo‘llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma‘lum o‘quv fanini o‘qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Metodika -

- (grekcha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l, ahloq usuli ma‘nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo‘li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko‘rinishi.

**2. Ko‘rsatmalilik metodlari** - kuzatish, turli ijodiy ishlarni namoyish qilish;

**3. Muammoli ta‘lim metodlari** - o‘quv materialini muammoli bayon etish, izlanish suhbatlari, tadqiqot metodi;

**4. Amaliy ish metodlari** - talabalarning mustaqil ijodiy ishlari, mutaxassislik adabiyotlari va ma‘lumotlar bazasi bilan ishlash;

**5. Nazorat qilish metodlari** - ijodiy topshiriqlarni tekshirish, muammoli masalalarni hal etish va ularni nazorat qilish. Bunda pedagogning vazifasi har bir amaliy mashg‘ulotda pedagogik ijodkorlikning turli metodlarini uyg‘unlashtirib, talabalar o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirishini ta‘minlashdan iboratdir.

Interfaol ta‘lim nazariyasi o‘zida pedagogik kompetentlikka asoslangan yondashuv hamda loyihachilikka yo‘naltirilgan muam-




moli ta'lim paradigmalarini mujassamlashtiradi. Interfaol ta'lim nazariyasidagi ushbu yondashuvlar va texnologiyalar ta'lim 32 oluvchilarda kreativ tafakkur shakllarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondoshuvlardan biri ekanligi bilan ajralib turadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga kreativlik salohiyatini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etish mobaynida talabalarni ijodiy faoliyatga jalb etish bo'yicha asosiy psixologik-pedagogik talablarni bajarish bilan birga bunday faoliyatning mazmuniga qo'yilgan maqsadga va talabalarning yoshiga muvofiq metodlarni tanlash ham katta ahamiyatga ega.

Har bir mashg'ulotning o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u bo'lajak tarbiyachilarining ehtiyojidan kelib chiq-qa holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.


O'quv jarayonida metod va metodikaning qanchalik ahamiyatli ekanligini quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin:



Chizmadan ko'rinib turibdiki, maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining egallayotgan bilimlarni to'g'ri idrok 33

etishlari, anglashlari, eslab qolishlari va amalda ijodiy qo‘llashlari hamda zarur kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishlari uchun didaktik prinsiplar va o‘rganiladigan mavzuning xarakteriga muvofiq zamonaviy eng samarali metodlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishlari kerak. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirish va kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish yulida quyidagi pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlardan foydalanilmoqda. Quyida mazkur metodlarning mohiyati to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritiladi:



**Suhbat metodi.** Pedagogik kuzatish chogida talabaning kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning kreativlik imkoniyatlari to‘la namoyon bo‘lishiga erishish muhim.

Suhbatning samarali kechishini ta'minlovchi shartlar:

- maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash, savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

- suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;
- suhbatdosh tugrisida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bulish;
- suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bulish;
- suhbatdoshning uz fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish

### ***Pedagogik tahlil.***

Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan shaxs tomonidan kreativlik sifatleri, imkoniyatlari va malakalarining uzlashtirish darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, pedagog tomonidan ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jixatdan xaqqoniyiligini asoslashga xizmat qiladi.

### ***Pedagogik-psixologik tashxis metodlari.***

Bu kabi metodlar shaxsning kreativlik sifatleri va ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislash hamda baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativlik sifatleri, ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislashda o'nlab metodlar qo'llanilmoqda. Ular orasida bir guruh metodlar amaliy jihatdan samarali bo'lib, ular rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda., Slosson testi, Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi ("WPPSI" testi) hamda Torrens testlari (jumladan, "Tugallanmagan rasmlar testi) shular jumlasidandir.



#### **Slossan testi**

Katta yoshlilar hamda bolalarning aqliy qobiliyatini o'lchashga xizmat qiladi.

Berilayotganbarcha testlarga javoblar og'zaki tarzda olinadi. Kichik yoshli bolalarga berilayotgan topshiriqlarningayrimlari bolalar tomonidan ayrim harakatlar (masalan, qog'oz, qalam yoki ruchkalardan foydalanish)ning bajarilishiga oiddir. Test aqliy qobiliyat darajasining o'rganilayotgan sifatlerga nisbati tarzida aniqlanadi. Bu o'rinda yuqori natija 120 va undan ortiq ko'rsatkich sanaladi.

**Векслер шкаласи** Veksler shkalasi (“PPSI” testi) aqliy qobiliyatni aniqlashga imkon beruvchi individual test hisoblanadi.

0 □ I Og‘zaki shkala (ma‘lum materialni o‘zlashtirish, uning mazmunini tushunish, arifmetik topshiriqlarni bajarish, o‘zaro o‘xshashliklarni topish, lug‘at boyligiga egalikni namoyish etish kabi beshta ko‘rsatkich bo‘yicha baholanadi);

0 □ I Q|> Harakat shkalasi (kubiklardan konstruksiyalar yaratish, labirintlarni topish, chizilayotgan surat (kartinalar)ni yakuniga yetkazish, tavsiya etilayotgan kod (tasvir)lar mohiyatini ochib berish (“Hayvonlarning uylari” mavzusi buyicha) kabi beshta holat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

Torrens (I) testi yozma shaklda bo‘lib, **Torrens (I) testi** tafakkurning quyidagi sifatlarini aniqlashga yordam beradi.

Tafakkur sifatleri aniqlovchi Torrens(I) testi.

- *tezkorlik;*

- *aniqlik;*

- *tasavvurning boyligi va o‘ziga xosligi.*

Test noto‘g‘ri shaklda yoritilgan surat (kartina)ni to‘g‘ri shaklda ifoda etishga asoslanadi. Bunda boladan juda yorqin ranglarda noto‘g‘ri tasvirlangan kartinani alohida qog‘ozga to‘g‘ri shaklda qayta tasvirlay olish talab etiladi.

**Torrens (II) testi** Torrens (II) testi og‘zaki shakldagi test bo‘lib, bolalar va kattalarning ijodiy qobiliyatini og‘zaki usullar yordamida

aniqlashga xizmat qiladi. Test quyidagi tavsifga ega:

Torrens (II) testi og‘zaki shakldagi test.

- *savollarni bera olish malakasiga egalik;*

- *surat (kartina)lar majmuida tasvirlangan vaziyatlarga mos keluvchi holatlarning sabab va oqibatlarini aniqlay olish;*


- *kundalik hayotda eng oddiy va ommaviy predmetlarni - qo‘llashning o‘ziga xos usullarini taklif eta olish;*

- *barcha uchun yaxshi tanish bo‘lgan predmetlar bo‘yicha kutilmagan savollarni bera olish;*

## E. P. Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi


Mazkur test quyidagi shtrixlaran iborat noaniq tasvirlardan iborat bo‘lib, talabalar ularni tugatib berish topshirig‘i beriladi.

### E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi



Pedagogik tajriba (lot. “eksperiment” - “tajriba kilib kurish”) metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega 37

bo‘la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tajribaning quyidagi turlari mavjud:



Pedagogik tajribalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor ularning samarali kechishiga qaratiladi. Bunda esa bir qator shartlarni inobatga olish lozim.

Pedagogik tajriba samaradorligini ta'minlovchi shartlar:  
tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;

a tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi; tadqiqot obyektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi; tajriba o'tkazilish vaqti va davomiyligining aniqlanishi; zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jixozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash

4

**5. Anketa (fr. "tekshirish") metodi** yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Metod tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma shaklda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar quyidagicha bo'ladi:

: \_\_\_ 1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega;

> 2) yopiq savollar ("xa", yo'q", "ijobiy", "salbiy" va h.k. tarzidagi javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar)ga ega anketalar.

Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur.

Anketa samaradorligini ta'minlovchi shartlar:

- savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- savollar yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;
- savollar o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- savollarga to‘la javob qaytarilishi uchun yetarlicha vaqt ajratilishi kerak;
- anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi zarur;
- javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart

6. ***Pedagogik kuzatish metodini*** qo‘llashda ta'lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq tahlil qilinadi. PK murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim- tarbiya sifatini oshirish, shaxsda kreativlik sifatlarini shakllantirish- ga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

---

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishga qo‘yiladigan shartlar:

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
  - kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
  - kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
  - har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
  - xulosa chiqarishga shoshilmaslik.
-





**7. Pedagogik kvalimetriya** ta'lim sifatini nazorat qilish va samarali boshqarish maqsadida qo'llaniladi. Bunda turli darajadagi testlar, muammoli vaziyatlarni xal qilish (keyslarni yechish) asosida shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil eta olish ko'nikmalariga egaligi, ularning darajasi o'rganiladi hamda baholanadi.

**8. Bola (talaba)lar ijodini o'rganish metodi** talabalarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma'lum fan sohalari bo'yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - ikki varaqli kundalik, insho, yozma ish, kichik esse, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari, pedagogik amaliyot hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metod ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

**9. Ekspert baholash metodi** zamonaviy sharoitda deyarli barcha sohalarda olib boriladigan tajribalarda jarayonida qo'llaniladigan va keng ommalashgan ilmiy-tadqiqot metodlardan biri sanaladi. Ko'p holatlarda shaxsda kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyat ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash psixolog, pedagog va bevosita kreativlikka dahldor sohalarning vakillari - malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi. Ammo ta'lim jarayonida hamkorlik ta'limi tamoyillariga muvofiq talabalarning o'rtasida ham ularning o'quv topshiriqlarini bajarishga nisbatan kreativ yondashuvlarining samaradorligini baholash maqsadida



ekspert guruhi shakllantirilishi ham mumkin.



Bu guruh talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulotlar va ularning sifatini baholaydi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda ta'lim va tarbiya jarayonlarining sifatli, samarali tashkil etilishi ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Mazkur zaruriyatning qondirilishi pedagog-tarbiyachilarning yuqori darajada kasbiy kompetentlik, mahorat va malakalarga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Pedagoglarning ta'lim jarayoniga kreativ yonda- shuvlari talabalarda ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, talabalarining pedagog-tarbiyachi sifatida kreativ sifat, ijodkorlik ko'nikma, malakalarini faol o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitni yaratadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda turli xil ijodiy topshiriqlar va mashqlar berish orqali biz ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ham ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin tayyorlagan bo'lamiz. Masalan, talabalar uchun kreativlikni rivojlantiruvchi "Torrensning tugallanmagan rasmlar" testini qo'llashimiz, ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida bolajonlar o'rtasida "Quvnoq raqobat" mashqini o'tkazishlarida qo'l keladi. "Quvnoq raqobat" mashqi orqali

bolajonlarga bir xil geometrik shakl yoki biron bir obyektning bir qismi tasvirlangan qog'ozlar tarqatiladi. Bolalar mashqni bajarish mobaynida rasmlarni tugatishlari va o'z fantaziyalaridan kelib chiqib, topshiriqni yakunlashlari kerak.

Yoki talabalar uchun "qarama-qarshi so'zlar" mashqini olsak, bo'lajak mutaxassislar o'z faoliyatlarida bolajonlarda "Yaxshi - yomon" yoki "Qarama-qarshiliklar zanjiri" o'yinini o'tkazishlari mumkin. Masalan: Sayr yaxshi-chunki quyosh porlamoqda. Quyosh porlamoqda-yomon, chunki issiq. Issiq yaxshi-chunki yoz va shu kabi o'yin va mashqlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol ta'lim metodlariga qaytadigan bo'lsak, interfaol ta'lim metodlarining o'qitish muhitida bo'lajak mutaxassislarga ta'sir etuvchi rivojlantiruvchi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Interfaol o'qitishda qulay muhit yaratiladi, yaxshi tashkil etilgan o'qitish muhiti:

o'qish va tadqiqotlarga ko'maklashadi; turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallarga ega buladi; kreativlik, ijodkorlik qobiliyatiga rag'bat beradi; fikrlar va axborotlar almashuviga imkon yaratadi; ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalarini shakllantiradi;



uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxasssilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi:

- ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;


- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;

- keyslar bilan ishlash;
- guruhiy ish shakllari va debatlarini tashkil etish;
- o'quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyushtirish;

- to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va hokazo.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini kreativligini rivojlantirishda o‘quv jarayonini ijodiy faoliyat modeli ko‘rinishida yaratish ehtiyoji ko‘zga tashlanmoqda. Oliy ta’lim nazariyasi va amaliyotida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari kasbiy ta’limni mazmunli, muammoli vaziyat kontekstida tadqiqot faoliyati sifatida tashkil etish kerakligini, yechimlarni tanlash va usullarni aks ettirish, o‘zini kreativ shaxs sifatida bilish, shaxsiy kasbiy tayyorgarlik dasturlarini yaratish, o‘quv jarayonini tashkil etishning moslashuvchan modellariga o‘tish zarurligini belgilamoqda.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta’lim jarayonida quyidagi eng samarali metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:




Loyiha usuli pedagogik amaliyotda prinsipial jihatdan yangi emas, lekin ayni paytda tez o‘zgaruvchan dunyoga moslashish qobiliyatini ta’minlaydigan

XXI asrning pedagogik texnologiyalari deb ataladi.

U 19-asrning 2-yarmida AQSHda vujudga keldi. Uning nazariy asosini amerikalik idealist faylasufi Jon Dyui (1859- 1952)ning «pragmatik pedagogikasi» tashkil etdi. D.Dyui va uning izdoshlari tomonidan tanqidiy tarzda o‘zgartirilgan loyihalar usuli talabalarning mustaqilligini, tanqidiy fikrlashni, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishni ta‘minlaydi, ularni bilim olishga o‘rgatadi.

Talabalarning loyiha faoliyatini shakllantirish ularni turli muammolarni, shu jumladan, o‘quv muammolarini hal qilish uchun universal qobiliyat bilan jihozlash uchun zarurdir.



**Loyihalashtirish - («loyiha» so‘zidan)** - real natijaga olib keluvchi, qat‘iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o‘z ichiga oluvchi muammoni xal etuvchi faoliyatni anglatadi.

**O‘quv loyihasi** - o‘qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to uni hal etish yo‘lini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta‘minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyatidir.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari uchun loyihada ustunlik qiladigan usulga ko'ra loyihalar turlaridan ijodiy loyiha turini ajratishiz mumkin:

### ***Ijodiy loyiha.***

Shuni ta'kidlash kerakki, loyiha doimo ijodiy yondashuvni talab qiladi va shu ma'noda har qanday loyihani ijodiy deb atash mumkin. Ammo loyiha turini belgilashda ustun jihat ta'kidlanadi. Ijodiy loyihalar natijalarning tegishli dizaynini o'z ichiga oladi. Bunday loyihalar, qoida tariqasida, ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyatining batafsil tuzilishiga ega emas, boshida u faqat yakuniy natija janriga qarab belgilanadi va yanada rivojlanadi. Bunday natija bo'lishi mumkin: qo'shma gazeta, insho, videofilm, spektakl, o'yin, bayram, ekspeditsiya va boshqalar. Biroq, loyiha natijalarini taqdim etish videofilm yoki spektakl uchun ssenariy, bayram dasturi, insho rejasi, maqola, ma'ruza va boshqalar ko'rinishida puxta o'ylangan tuzilmani talab qiladi.



Loyihalar ustida ishlashda nafaqat tadqiqot loyihalari, balki boshqa ko'plab talabalarning mustaqil bilim faoliyatining turli usullari qo'llaniladi. Ular

orasida tadqiqot usuli deyarli markaziy o'rinni egallaydi va shu bilan birga eng katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, bu usulning xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tish muhim ko'rinadi.

- o'zlashtirish darajasining eng yuqori cho'qqisi;
- talabalarning olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan kichik bir muammo ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishi;
- keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirish.



**Keys-stadi” (ingliz tilida “case” - metod, “study” - muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi**

ta'lim oluvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini 45

topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida talabalar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatorida kirmoqda. Ushbu metod talabalarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda o'z niyatini berishida ko'rish mumkin. O'z navbatida vaziyatlarning analizi talabalarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta'sir o'tkaza olishi, ularning kasbiy jihatdan "ulg'ayishiga" xizmat qilishi, ta'lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi talabaning tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, noana'naviy tarzda fikrlash imkonini beradi.


Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir:

ta'lim shakllari, ta'lim metodlari,

≥ ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari,

axborotlarni to'plash,

ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari,



o'quv natijalari.

Talabalar natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo‘llashda quyidagi

**QIZIL VA YASHIL RANGLI  
KARTOCHKALAR BILAN  
ISHLASH” metodi**

harakatlar amalga oshiriladi:

— o‘qituvchi tomonidan organilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

— har guruhga maxsus kartochkalarining alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

— guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo‘lingach, kartochkalarining orqa tomoni o‘giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to‘g‘ri bajarilganligi aniqlanadi;

— agar topshiriq guruhlar tomonidan to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o‘girilganda mavzuning mohiyotini yorituvchi “yadro” tushuncha hosil bo‘ladi.

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o‘quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo‘lib o‘rganish va qismlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko‘nikmalari hosil qiladi.

Ushbu metod talabalarning kreativligini rivojlantirish bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalar yosh xususiyatiga mos ravishda qo‘llanilsa, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali sanaladi. Faqat maktabgacha yoshdagi bolalarga ushbu metodni qo‘llashda mashg‘ulotning mavzusiga hamda guruhda tarbiyalanuvchilarning yoshiga mos ravishda rasmi kartochkalardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.



## Sinektika met

Ushbu metod 1960-yilda AQSHda U.Gordon tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod talabalarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsadini ajratib olishga, turli xil xarakterdagi vazifalarni yechishning har xil nusxalarini izlashga yordam beradi va ular quyidagi shaklga ega bo'ladi: bevosita (ma'lum bir vazifaning yechilishiga o'xshab yechiladi), shaxsiy (obyektdagi berilgan vazifa obraziga kirishga urinib ko'rish va shu nuqtai nazardan fikrlashga harakat qilib ko'riladi), ramziy (ikki jumla bilan vazifaning obrazli mohiyatini aytib beradi), xayoliy (go'yoki ertaklardagidek bu vazifani yechadilar). Bu bilan bo'lg'usi mutaxassisda abstraksiyalash malakasi, muhokama predmetidan o'zini fikran olib qochish, aql yuritish moyilligi, xayolot, bahslarga kirishib keta olish, bog'lanib qolish havfi bo'lgan g'oyalardan uzoqlashish, boshqalar fikrini tinglash, safdoshi bildirgan g'oyalarga nisbatan chidamli bo'lish, odatdagilar ichidan g'ayri odatiylarini va g'ayri odatiylar ichidan odatdagilarini topish hamda analoglardan unumli foydalanish kabi sinektik fikrlashga bo'lgan qobiliyat shakllanadi.

## SCAMPER metodi

“SCAMPER” - kreativ metodi

**SUBSTITUTE (ALMASHTIRISH)** - nima bilan almashtirish mumkin? **COMBINE (BIRLASHTIRISH)** - nima bilan birlashtirish mumkin? **ADAPT(MOSLASHTIRISH)** - nima bilan moslashtirish mumkin? **MODIFY/MAGNIFY (MODIFIKATSIYA BOSHQA TURI (HOLATI))** - Qanday yaxshilashim mumkin? (katta, uzoqroq, balandroq, ortiqcha ishlangan, qo'shimcha funktsiyalarni bajarish)

**PUT TO OTHER USES (BOSHQA SOHALARDA QO'L-LASH)** - Nima o'zgarishi mumkin? (uning miqyosidagi o'sish yoki kamayishi, shakli o'zgarishi, belgilar (masalan, rang) va boshqalar) **ELIMINATE (QISQARTIRISH)** - yana qanday holda qo'llash mumkin? **REARRANGE/REVERSE (TARTIBINI O'ZGARTIRISH)** - Nimani qayta tiklash mumkin? (Buyurtmani o'zgartirish, komponentlarni almashtirish, tezlik va boshqalar).



## “Aql xaritasi” metodi

**“Aql xaritasi” (ingl. “Mind map”) metodi** - taniqli yozuv- chi, notiq va o‘qitish psixologiyasi hamda fikrlash muammolari bo‘yicha maslahatchi Toni Byuzen tomonidan ishlab chiqilgan. U “Intellekt karta”, “Mental karta”, “Idrok xaritasi” yoki “Fikrlar xaritasi” deb ham yuritiladi. “Aql xaritasi” - o‘quv materiallari faktlar, tushunchalar, g‘oyalar sifatida qo‘llana oladigan ko‘rgaz- mali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli ma'lumotnoma ko‘rinishidagi tayanch signallar tizimidir. Unda o‘zaro uzviy bog‘langan ramzlar (so‘z, shartli belgi, jadval, chizma, rasm va h.k) ifodalangan bo‘lib, qandaydir ma'noli mohiyatni anglatadi. Bu analitik fikrlash instrumenti bo‘lib, maksimal tarzda muammoning yechimini topish zarurligida qo‘llaniladi. Maqsad turlicha bo‘lishi mumkin: fikrlar generatsiyasi, taqdimotga tayyorlanish, tadbir tashkil etish va o‘tkazish, ma'ruzani konspekt qilish, katta hajmdagi axborotni eslab qolish, kun tartibini yoki loyiha ishini rejalashtirish va b.

## “Kubik-kubik” metodi

**“Kubik-kubik” metodi.** Ushbu metodni nafaqat talabalar uchun balki maktabgacha ta'lim muassasasi o‘qish mashg‘ulotlarida o‘tilgan mavzularni mustahkamlash yuzasidan ham qo‘llanilishi mumkin.

Quyida ushbu metod asosida tashkil etilgan mashg‘ulotning texnologik xaritasi va mashg‘ulot ishlanmasini keltiramiz:

**Mashg‘ulot mavzusi:** “Rasm asosida ertak to‘qish”

**Mashg‘ulot maqsadi:** ta'limiy - bolalarga o‘tilgan mav- zuni mustahkamlashga doir bilim, tushunchalar berish, tarbiyaviy - bolalarda vatanparvarlik tarbiyasi ko‘nikmalarini tarkib topti- rish, rivojlantiruvchi - bolalarning o‘qish va ijodkorlik malakalarini rivojlantirish.

**Mashg‘ulotning borishi:** Ma'lumki maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilar hayotining asosini o‘yinlar tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda tarbiyachilar mashg‘ulotlarni o'yin

asosida tashkil qihshga harakat qiladilar. Bu esa mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lini qisqartiradi.

O‘yinning birinchi bosqichida oldindan tayyorlab qo‘yilgan tomonlari 8 smga teng tomonli kubiklarga bola kundalik hayotida ko‘rib turadigan narsalarning suratlari yelimlanadi va kubiklar aralashtirib tashlanadi. Bolalardan ma‘lum turkumga kiruvchi predmetlarning masalan, mashinalarning rasmlarini yoki uy hayvonlarining rasmlarini kubiklar orasidan terib olish topshirig‘i beriladi. Bunday mashqlarni bola tez uddalaydi. Bu o‘yin bir necha marta takrorlansa bolaga o‘yinga qiziqish uyg‘onadi.

O‘yinning ikkinchi bosqichida kubiklarning bir tomoniga bir predmetning olti yoki sakkizga bo‘lingan rasmi yelimlanadi. Kubiklar aralashtirib tashlanadi va boladan birorta rasmni tiklab berish talab qilinadi. Bunday o‘yinlarda bolada rasmlarni yodda saqlab qolish qobiliyatlari tarkib toptirila boradi.

O‘yinning uchinchi bosqichida kubiklarning oltala tomoniga rasm bo‘laklari yelimlanadi. Endi kubik o‘yinidan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadga erishish vaqti yetib keladi. Kubiklar aralashtirib tashlanadi va bolalardan birorta rasmni tiklab berish talab qilinadi. Bolalar rasmni tiklashga erishganlaridan so‘ng rasm asosida ertak to‘qish vazifasi yuklanadi. Mashq bir necha marotaba takrorlanadi va bitta rasm asosida bir necha xil ertaklar yuzaga keladi. Mashg‘ulotda yaxshi ishtirokchilar rag‘batlantirib boriladi. Shunday qilib mashg‘ulot osondan qiyinga, oddiydan marakkabga qarab rivojlantirib boriladi.

Bunday mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish, maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining o‘tilgan mavzu yuzasidan bilimlarining mustahkamlanishiga, ijodiy, mustaqil fikrlash malakasiga ega bo‘lishlarida, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida, o‘zaro o‘rtoqlik, do‘stlik munosabatlarining tarkib topishida, chaqqonlik va epchillik fazilatlarining rivojlanishida muhim omil bo‘lib hizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta‘lim taraqqiyotida pedagogik innovatsiyalarni to‘liq o‘zlashtirish nazariyasi va amaliyoti ta‘lim sohasida yangicha fikrlashga olib kelishi shubhasizdir. Bu o‘rinda

shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan usullarni qo'llashda tarbiyachidan yuqori malaka va bolalar fikrlarining to'g'ri- noto'g'riligini baholash, sharhlab borish talab qilinadi. Biror ko'rinishda baholangan faoliyat yanada jonlanish, fikrlash jarayonini faollashtirish xususiyatiga ega bo'ladi.

#### **4 - mavzu. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalari**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda eng avvalo, oliy ta'lim muasasasasi pedagoglarining o'zlari ushbu faoliyatga - tayyorligi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda imkon beruvchi muhitni yaratish va talabalarning yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga hamda kelgusida o'z kasbiy faoliyatlarida amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lishlari III-renesans davrida juda katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya ko'pincha quyidagicha ta'riflanadi:

- **metodlar majmui** - pedagogik faoliyatning chuqur jarayonlarining xususiyatlarini, ularning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aks ettiruvchi, boshqaruvi ta'lim jarayonining zarur samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik bilim sohasi;

- ijtimoiy tajribani uzatish shakllari, usullari, texnikasi va vositalari, shuningdek, ushbu jarayonni texnik jihozlash;

- o'qituvchining aniq faoliyati bilan bog'liq va maqsadlarga erishishga qaratilgan muayyan harakatlar, operatsiyalar ketma-ketligi yoki o'quv-idrok jarayonini tashkil etish usullari majmui (texnologik zanjir).

**Ta'lim texnologiyasi** - bu ishtirokchilar uchun qulay sharoitlarni ta'minlash va cheklovlarni hisobga olgan holda muayyan natijaga erishish uchun uni rejalashtirish, tashkil etish, yo'naltirish va sozlash bo'yicha o'quv jarayoni subyektlarining birgalikdagi faoliyati tizimi.

Mavjud ta'lim texnologiyalarining keng doirasi ularni tasniflashni taklif qiladi. Garchi bugungi kunda ta'lim texnologiyalarining yagona, aniq belgilangan tasnifi mavjud bo'lmasa-da, bir qator tadqiqotchilarning e'tiborini ikkita texnologiya guruhi jalb qilmoqda: **an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari**.

An'anaviy ta'lim texnologiyalari bilimlarni yetkazish va harakat usullarini tavsiflashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarga 52

tayyor shaklda uzatiladi va reproduktiv assimilyatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim texnologiyalari guruhiga quyidagilar kiradi:

- Tushuntirish va illyustrativ o'qitish texnologiyasi;
- Muammoli ta'lim texnologiyasi;
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi;
- Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi;
- Modulli ta'lim texnologiyasi;
- Ma'ruza-seminar-kredit tizimi;
- O'yin texnologiyasi va boshqalar.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'qituvchini o'quv faoliyatini tashkil etishning bunday harakatlari, usullari va shakllaridan foydalanishga yo'naltiradi, bunda asosiy e'tibor o'quvchining majburiy kognitiv faoliyatiga, tizimli fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilishda g'oyalarni shakllantirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. MM. Blagoveshchenskaya, V.F. Manuilov, I.V. Fedorov bunday texnologiyalarning uch turini ajratib ko'rsatadi: radikal (o'quv jarayonini yoki uning katta qismini qayta qurish); birlashtirilgan (bir qancha ma'lum elementlar yoki texnologiyalarni yangi texnologiya yoki o'qitish uslubiga birlashtirish); o'zgartirish (o'qitish usuli yoki texnologiyasini sezilarli darajada o'zgartir- masdan takomillashtirish).

Oliy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari deganda ta'limda fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ular talabalarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirish orqali o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan.

Bu guruhga quyidagilar kiradi:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi
3. Loyihalash texnologiyasi
4. Loyiha faoliyatida foydalaniladigan texnologiyalar
5. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar
6. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi
7. Salomatlikni tejaydigan texnologiyalar
8. Dastgoh texnologiyasi

9. Case - texnologiya
10. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi
11. Dalton texnologiyasi va boshqalar.



*Tanqidiy fikrlash texnologiyasi*

Tanqidiy fikrlash deganda nima tushuniladi? Tanqidiy fikrlash - bu har qanday fikrga tanqidiy munosabatda bo'lishga, hech narsani dalilsiz qabul qilmaslikka, lekin ayni paytda yangi g'oyalar va usullarga ochiq bo'lishga yordam beradigan fikrlash turi. Tanqidiy fikrlash - tanlash erkinligi, o'z qarorlari uchun javobgarlik uchun zaruriy shart. Demak, tanqidiy fikrlash mohiyatan tavnologiyaning bir turi, sifat tafakkurining sinonimidir. Bu tushuncha emas, balki nom, lekin aynan shu nom ostida qator xalqaro loyihalar bilan biz quyida taqdim etadigan texnologik usullar hayotimizga kirib keldi.



**Muammoli ta'lim texnologiyasi**

**Muammoli ta'lim** - ta'lim jarayonini olib borishda o'quvchilar oldiga yechish uchun muammoni qo'yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg'ulot davomida uning yechimini topish. Muammo o'qituvchi tomonidan yoki o'quvchilar tomonidan qo'yilishi mumkin. Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi insonni fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muamolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol, mustaqil 54

faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli o‘qitish jarayonida beriladigan topshiriqlar talabalariga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo‘yicha topshiriqlar beriladi.

Bunda:


- nostandart masalalarni tuzish bo‘yicha;
- shakllantirilmagan savol bilan;
- ortiqcha ma'lumotlar bilan;
- o‘zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;
- yo‘riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir obyekt mohiyatini bayon etish;
- olingan natijalarni qo‘llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;
- hodisaning namoyon bo‘lish mexanizmini aniqlash;
- «bir lahzada» topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Kasbiy ijodkorlikning turli metodlari, strategiya va grafik organayzerlari hamda didaktik usullari o‘quv materialining mazmuniga va mashg‘ulotda hal qilinadigan didaktik hamda tarbiyaviy vazifalarga qarab har xil yo‘sinda qo‘shib va o‘zaro bog‘lab qo‘llanadi.

## **“VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)**

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.


GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



**Hususiy  
jihatlari**

**Umumiy  
jihatlari**

**Hususiy  
jihatlari**



Grafik organayzer ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yakun nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.

### **“Konseptual jadval” GO**

Ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:

- O'qituvchi yechimini topishi lozim bo'lgan mavzuni taqdim etadi
- Talabalar mavzu va GOdan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi



- Talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi
- Guruhlar yechimni guruh jamoasi hukmiga havola etadi
- Guruhlarning yechimi guruh jamoasi o'rtasida muhokama qilinadi.


### “Baliq skeleti” GO

Ta'lim oluvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

### “SWOT-tahlil” strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta'lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jihati tahlil qilinadi:




Grafik organayzer ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

### “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni xar tomonlama, puhta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta'limda strategiyani qo'llash o'rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko'ra mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



*Ijodiy ustaxonalar texnologiyasi* | J



Yangi bilimlarni o'rganish va egallashning muqobil va samarali usullaridan biri bu seminarlar texnologiyasidir. Unda munosabatlar pedagogikasi, keng qamrovli ta'lim, qat'iy dasturlar va 58

darsliklarsiz ta'lim, loyihalar usuli, o'quvchilarning tanqidiy ijodiy

faoliyati qo'llaniladi. Texnologiyaning dolzarbligi shundan iboratki, uni nafaqat yangi materialni o'rganishda, balki ilgari o'rganilgan materialni takrorlash va mustahkamlashda ham qo'llash mumkin.

Seminar - bu o'quv jarayonini shunday tashkil qilishni o'z ichiga olgan texnologiya bo'lib, unda o'qituvchi-ustoz o'z talabalarini o'quv jarayoni bilan tanishtiradi, unda o'quvchi o'zini ijodkor sifatida ko'rsatishi mumkin bo'lgan hissiy muhitni yaratish orqali. Bu texnologiyada bilim berilmaydi, balki o'quvchining o'zi tomonidan o'zining shaxsiy tajribasi asosida juftlik yoki guruh bo'lib quriladi, o'qituvchi-ustoz unga faqat fikrlash uchun topshiriqlar ko'rinishidagi kerakli materialni beradi. Ushbu texnologiya shaxsga o'z bilimlarini yaratishga imkon beradi, bu uning muammoli ta'lim bilan katta o'xshashligi. Talabaning ham, o'qituvchining ham ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratiladi. Shaxsning kommunikativ fazilatlari, shuningdek, o'quvchining subyektivligi - subyekt, faoliyatning faol ishtirokchisi bo'lish, maqsadlarni, rejalarni mustaqil ravishda belgilash qobiliyati shakllanadi. faoliyatini amalga oshirish va tahlil qilish. Ushbu texnologiya talabalarni dars maqsadlarini mustaqil ravishda shakllantirishga o'rgatish, ularga erishishning eng samarali usullarini topish, aql-zakovatni rivojlantirish, guruh faoliyatida tajriba orttirishga hissa qo'shish imkonini beradi.

### **“Kichik esse” strategiyasi**

Talabalarda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u talabalarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

### **“Mantiqiy chalkash zanjir” strategiyasi**

Tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga

yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni "ulash"dan iborat.

Kichik esse, mantiqiy chalkash zanjir strategiyasidan nafaqat talabalar uchun balki maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlashlarini, tushunchalarini tasviriy ko'rinishda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishda ham foydalanish imkoniyati mavjudligi, mazkur strategiyalarning ilmiy izlanishimiz mobaynida samarali xizmat qilishiga asos bo'la oladi.



Asosiy tamoyil - boshqalar bilan hamkorlikda erkin mustaqil rivojlanish. Rivojlanayotgan o'quvchilar o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro nazoratni amalga oshiradilar va natijaga erishilganda o'qituvchi tomonidan baholanadi. Shunday qilib, talabaga mavzu, ish sur'ati, axborot manbalari va ish usullarini tanlash erkinligi beriladi, shundan so'ng u o'qituvchiga individual hisobot beradi, ya'ni bu holda erkinlik javobgarlikni istisno qilmaydi. Mustaqillik qaror qabul qilishda, shuningdek, o'z tanlovi uchun mas'uliyatda namoyon bo'ladi.

Hamkorlik o'quvchining boshqa o'quvchi bilan yakka tartibda, guruhda yoki juftlikda ishlashi, shuningdek, o'qituvchi, ota-ona, o'rtoqlaridan yordam so'rashida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bola biror narsani bilmasa, qo'rqish kerak emas. An'anaviy ta'lim bilan har doim buning teskarisi sodir bo'ladi, ya'ni bola doimo o'zining jaholatidan qo'rqishi mumkin, bu esa uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Hamkorlik tamoyili talabalarda boshqa odamlarni hurmat qilish, ularni tinglash va tushunish, aloqa o'rnatish, muammolarni boshqalar bilan birgalikda hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu yerda bola boshqalarga yordam berish va ishonishni, jamoaviy ish uchun mas'uliyatni o'rganadi.

Dalton texnologiyasining asosi ijodiy vazifalar bo'lib, ularning har biri muayyan muammoni ta'kidlaydi. Vazifalar tabiatda tadqiqot bo'lishi mumkin, tajriba, dizaynni o'z ichiga oladi. Vazifaning mazmuni o'quv rejasi yoki undan tashqaridagi ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Baholash individual topshiriqlar va umumiy test varaqlari yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchi tomonidan baholash og'zaki ravishda amalga oshiriladi. Topshiriqlar talabalarning imkoniyatlariga mos ravishda tuziladi va ularni mustaqil bajarish uchun mo'ljallangan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun topshiriqda amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar, kerakli adabiyotlar va topshiriqni bajarish vaqti ko'rsatilgan. Talabalar o'z topshiriqlarini turli yo'llar bilan bajarish va boshqalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega. Talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun topshiriqlar olingan bilimlar va erishilgan maqsadlarni o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Dalton texnologiyasi asosan maktab yoshidagi bolalar va talabalar uchun, lekin biz ushbu texnologiyani maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh va imkoniyatlaridan kelib chiqib, qo'llashimiz mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining boy ichki dunyosini shakllantirish, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun faol ijodiy faoliyatni rag'batlantirishning shunday metod va texnologiyalarni tanlash kerakki, bu unga qiyinchiliklarni yengish, har qanaqa muammoli vaziyatlarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun jozibali istiqbolni ochadi.

## **5 - mavzu. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda AKTexnologiyalari**

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha va ijodiy yondashuv ya'ni kreativlik asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirish va o'zgartirish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiya-

lashtirish jarayonining eng muhim qismidir. Bir tomondan, axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ikkinchi tomondan, ijodiy shaxsni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar orqali ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish mumkin.

Boshqa sohalar qatorida maktabgacha ta'lim sohasida ham ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish va tarbiyachilarining AKT kompetentligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimi hodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilim va malakasini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019-yildagi 487-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim amaliyotida AKTdan foydalanish asosan quyidagicha:

**1 o'quv faoliyati uchun illyustratsion va qo'shimcha materiallarni tanlash, stendlar, guruhlar, o'quv xonalari, bukletlar dizayni;**

**— bayramlar va boshqa tadbirlarning ssenariylari bilan tanishish;**

**- - tajriba almashish;**

**davriy nashrlar bilan tanishish,**

**- -- raqamli kameralar va fotosuratlarini tahrirlash dasturlaridan foydalanish;**

**- -- maktabgacha ta'lim muassasasining ish yuritishida kompyuterdan foydalanish, turli xil ma'lumotlar bazalarini yaratish;**

## **1elektron pochtani yaratish, saytga xizmat ko'rsatish; 1Power Point dasturida prezentatsiyalar yaratish.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, bolalarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirishi tabiiy. AKT dan foydalanishga kreativ yondashuv narsalar yoki hodisalarning rangini, harakat va tovushini yangicha yaratishga, ijod mahsulotlarini, didaktik ta'minotini kreativ tarzda ishlab chiqishga imkon beradi. Bugungi kunda har qanday maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi AKTdan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil qilishi va o'tkazishi kerak. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda ham AKTexnologiyalarining o'rnini beqiyos. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda AKTdan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" atamasining talqinini alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi vaqtda umumiy qabul qilingan ta'rif quyidagicha:

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari AKT vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslarini hisobga olgan holda turli shakllarda qabul qilingan, qayta ishlangan va taqdim etilgan assotsiatsiyalashgan aloqador ma'lumotlar g'oyasini yanada rivojlantirishni amalga oshiradigan integratsiyalashgan multimedia muhitida ishlash texnologiyasini o'zlashtirishdir.**

Axborot texnologiyalari, bir tomondan, talabalar uchun turli xil ma'lumotlarni tezkor qabul qilish uchun kuchli vosita bo'lsa, ikkinchi tomondan, u ma'lumotni yoki muammoni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish, shuningdek, vizualizatsiya, ilmiy xarakter va xususiyatlarni rag'batlantirishning samarali vositasidir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limni rivojlantirishning yangi istiqbollarni taqdim etadi va didaktik 63



yondashuvlarni, shuningdek, ta'limni tashkil etishning uslubiy asoslarini sifat va tubdan o'zgartiradi.

Talabaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda talabalar-ning ijodiy o'zini-o'zi anglashiga, uning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlash, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga hissa qo'shadi;

---- ► kiruvchi ma'lumotlarni vazifaning maqsadlari, shartlari, talablari bo'yicha baholash qobiliyati;

---- ► muammoni hal qilish usullari va usullarini aniqlash, ularni ma'lum bir mezonlar asosida baholash qobiliyati;


<sup>k</sup> qo'yilgan vazifaga mos keladigan va hal qilinishi kerak bo'lgan vositalarni tanlash qobiliyati;

---- ► olingan natijalarni asl maqsadlar bilan bog'lash qobiliyati;

► o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish, birinchi navbatda, qidiruv, yo'naltirish;


<sup>k</sup> talabalarining yangi bilimlarni mustaqil egallash tajribasini shakllantirish, ularni yangi sharoitlarda qo'llash, ijodiy faoliyat bo'yicha tajribasini boyitish;

<sup>k</sup> axborotni qayta ishlash va undan foydalanish qobiliyati, axborot texnologiyalari (dasturiy ta'minot tizimlari) va kompyuter telekommunikatsiyalari bilan ishlash qobiliyati.





## Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari



Axborot texnologiyalarining asosiy vositalaridan o'quv jarayonida foydalanishdan asosiy maqsad quyidagilardir:

talabalarning har taraflama aqliy fikrlash va tasavvurlash malakalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy axborotlashgan jamiyatda mustaqil fikrlash va ishlashga tayyorlash, ya'ni har qanday murakkab jarayonlarni amalga oshirishda mustaqil qarorlar qabul qilish, o'zining fikrini va mulohazasini bayon qilishga o'rgatish, tirishqoq hamda izlanuvchanlik faoliyatini shakllantirish;

barcha ta'lim tizimlarida o'qitish jarayonlarini tezlashtirish hamda ularning samaradorligini oshirish uchun yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni yaratish va jalb etish;

axborot-telekommunikatsion texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini hamda dasturiy vositalarini ta'lim sohasiga joriy etish orqali uning mukammaligi, unumdorligi, sifati va samaradorligini oshirish;

axborot-telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish holda talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish hamda shu orqali ularni mustaqil fikrlash va tasavvur qilish faoliyatini

kengaytirish va faollashtirish;

axborot-telekommunikatsion texnologiyalar yordamida fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish, shu bilan birga zamonaviy texnologiyalarni barcha sohalarga tatbiq etish;

tarmoq texnologiyalari asosida o'qitishning zamonaviy tizimlarini, shu jumladan masofadan o'qitish tizimini yaratish, tadbiq etish va takomillashtirish.

Bo'lajak tarbiyachilarini tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida, talabalarga zamonaviy kompyuter va aloqa vositalaridan foydalanib, murakkab vaziyatlarda tezkorlik bilan bir qarorga kelish, axborotni qidirish, uni olish, kommunikativ bilimlarini va kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi texnik vositalar va multimedia texnologiyalari asosida ta'lim berish, berilayotgan bilimni tez va oson o'zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga, tinglovchilarni va ularning oldida turgan muammolarni birgalikda munozara, loyihalash hamda olingan natijalarni tanqidiy tahlil qilish orqali, nostandart yechimlarni topish kabilarni ishlab chiqishga yondashishga yordam berayotganligi amalda o'z isbotini topmoqda. Ta'lim tizimida videokonferensiyalar tashkil qilinishi imkoniyatining yaratib berilganligi talabalarning fikr almashishi, erkin va ijodiy tafakkurini rivojlantirish va o'z fikrini to'g'ri va aniq yetkazib berish qobiliyatiga ega bo'lishida muhim omil bo'ladi.

Axborot texnologiyalarining moslashuvchanlik va interaktivlik xususiyatiga egaligi talabalarning o'zlashtirish darajasiga bog'liq holda o'tilgan mavzuni qaytarish, mavzu ustida ishlashlarni individual tempda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy muloqotni imitatsiyalash, ya'ni, elektron darslik matni bilan talaba o'rtasida muloqot urnatib, surovnomalar, verbal, noverbal, ovoz va b. yordamida o'qituvchi mavjudligini his etish imkoniyatini yaratadi. Bu turdagi texnologiyalar yordamida multimedia mahsulotlari, elektron albom, elektron atlas, raqamli video lavhalar, virtual

stendlar, audio va video vizual materiallar, shuningdek, prezentatsiyalar tayyorlash imkoniyati mavjudki, ular ta'lim jarayonining qiziqarli tashkil etilishini ta'minlaydi. Qolaversa, ular vositasida talabalar, pedagoglarning hissiy-estetik tuyg'ulari shakllanadi. Bu esa shaxsning kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

### Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy vositalari:

#### **Kompyuter**

Umumjahon axborotni qayta ishlash moslamasi. Kompyuter yoki noutbuk har qanday ma'lumotni erkin ishlashga imkon beradi. Bundan tashqari, Internet Internetdan foydalanib, kompyuter foydalanuvchiga kerak bo'lgan ma'lumotlarni topishga va qayta ishlashga yordam beradi.

#### **P royektor**

Bu pedagogik faoliyat uchun zarurdir, chunki u o'sib boradi: o'qituvchi faoliyatida ko'rinadigan daraja o'quvchilarga o'z ishlarining natijalarini

#### **Interfaol doska**

Interaktiv doska - bu kompyuterga ulangan, proektor orqali doskaga uzatiladigan sensorli ekran. Kompyuterda ishlashni boshlash uchun faqat taxtaning yuzasiga tegizish kifoya. Interfaol doskalarga mo'ljallangan maxsus dastur matnlar va obyektlar, audio va video materiallar, Internet-resurslar bilan ishlash, ochiq hujjatlar ustiga qo'lda yozib olish va ma'lumotlarni saqlashga imkon beradi.

#### **Printer**

Talabalar yoki o'qituvchilar tomonidan talabalar uchun topilgan va yaratilgan ma'lumotlarni qog'ozga yozib olishga imkon beradi.

**Vizual va to-  
vushli ma'lumot-  
larni yozib olish  
uchun moslama-  
lar (kamera,  
videokamera,  
telefon, planshet)**

---

Ushbu qurilmalar AKT bilan bog'liq bo'lib, ular atrofdagi dunyoning axborot tasvirlarini ta'lim jarayoniga bevosita kiritish imkoniyatini yaratadi.

---

**Saqlash vositasi  
(flesh-disk)**

U axborotni bir kompyuterdan boshqasiga saqlash va tezkor uzatish uchun ishlatiladi.

AKTning asosiy vositalarini ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish haqiqati o'quv jarayonini optimallashtirishga imkon beradi. Buning sababi shundaki, darslarni texnik qo'llab-quvvatlash yanada qulay psixologik sharoitlarni yaratadi, psixologik to'siqlarni yo'q qiladi, talabalarning turli mavzularini o'rganish vositalari, shakllari va stavkalarini tanlashdagi rolini oshiradi, o'qitishga kreativ va ijodiy yondashuvni ta'minlaydi.

Quyidagi axborot texnologiyalari bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi:

### **Zamonaviy multimedia texnologiyalari talabalarga**

**Multimedia** - bir necha ko'rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun tegishli umumiy tushuncha.

noan'anaviy axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi, mustaqil ish samaradorligini oshiradi, mutlaqo yangi narsalarni,

kreativlik, turli kasbiy ko‘nikmalarni egallash va mustahkamlash imkoniyatlari, hodisalar va jarayonlarni konseptual va matematik modellashtirish vositalaridan foydalangan holda o‘qitishning tubdan yangi shakllari va usullarini amalga oshirishga imkon beradi.

**Multimedia** bilimlarni o‘zlashtirish va shakllantirish jarayoniga yanada ijodiy yondashishni amalga oshiradi. Multimedia loyihalarini yaratish texnologiyasi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda : mavzuni shakllantirish, uni asoslash. Muhokama qiladigan ijodiy guruhlarini yaratish;

Ikkinchi bosqich - ishni rejalashtirish, u loyiha ishtirokchilari o‘rtasida masuliyatni taqsimlashni, loyihani amalga oshirish uchun vositalarni tanlashni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich - mavzu bo‘yicha ma‘lumot to‘plash. Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarga quyidagilar taklif etiladi: multimedia ma‘lumotnomalari, ensiklopediyalar, lug‘atlar, elektron kutubxona va Internet.

Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda multimediya prezentatsiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini yorqinroq, hissiyotliroq, ovozli effektlar va video yozuvlardan foydalangan holda katta illyustratsion materiallarni jalb qilgan holda amalga oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, prezentatsiyalarning ikkita asosiy afzalliklari aniqlanishi mumkin - interaktivlik, ya'ni talabalarning harakatlariga javoban ba'zi harakatlarni bajarish qobiliyati va multimedia (inglizcha "multimedia" dan - kopkomponentli muhit), ya'ni "taqdim eting" ham matnlar, ham tasvirlar (shu jumladan, harakatlanuvchi), shuningdek ovoz va musiqani ijro eting.

**Elektron albom** - rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqa grafik tasvirlar hamda ularning izoxlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam.



### **Virtual stendlar -**

- 1) real obyekt, predmet, jarayon, voqea va hodisalarning elektron modeli;
- 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. Shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita.

**Elektron atlas** (yun. “Atlas” - birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) - muayyan o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalaniladi.

**Raqamli video lavhalar** - o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagi zamonaviy o‘quv manbai.

Kompyuterda ma'lumot berishning eng boy imkoniyatlari ta'lim mazmunini o'zgartirish va boyitish imkonini beradi. Mashg'ulotlarda kompyuter testlari va mustaqil ishlardan foydalanish

qisqa vaqt ichida o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish darajasi haqida obyektiv tasavvurga ega bo'lish va uni o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi va talabalarning aqliy rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uni qo'llash bilan rivojlanayotgan faoliyat yanada yorqinroq va jadalroq kechadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish mashg'ulotni jozibali va chinakam zamonaviy qilishga, aniqlik asosida kognitiv va ijodiy vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

### **Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik ishlarida AKTdan foydalanishda:**

\z Uslubiy ishlanmalar va hujjatlarni ishlab chiqish, tizimlash-tirish va yig'ish (uzoq muddatli rejalar, eslatmalar, o'yinlar, musiqiy tanlov va boshqalar)

\z Talabalar ijodiy rivojlanishining diagnostikasi (diagrammalar, grafikalar, jadvallar)

\z Internet-resurslar (elektron pochta, qidiruv tizimlari, elektron konferensiyalar)

Dunyo bo'ylab ta'lim sohasidagi etakchi mutaxassislar bilan tajriba, didaktik materiallar va qo'llanmalar almashish ko'zda tutiladi.

Bo'lajak tarbiyachilarining kompetentligini rivojlantirishda oliy ta'lim tarbiyachilari nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirgan bo'lishi kerak, balki, o'z ta'lim resurslarini yaratishga ijodiy yondashuvni yo'lga qo'ygan bo'lishi va ularni tadqim etishni no'anaviy usullarini joriy etish malakasiga ham ega bo'lishi kerak.

Axborot texnologiyalarining imkoniyati va pedagoglarning kasbiy faoliyatlariga ijodiy yondashishlari natijasida yaratilgan multimedia mahsulotlari, audio va video materiallar, xususan, video animatsiyalar ham ta'lim jarayonida faol qo'llaniladi:

**Multimedia mahsulotlari** - o‘zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materialini tinglovchilarga yetkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar.

**Video animatsiyalar** - chizilgan (rasmli) yoki kichik hajmli obraz (hajmiy, qo‘g‘irchoq yoki o‘yinchoqli obyekt)larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tasvirlar.

**Audio va video vizual materiallar** - o‘quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovoqli va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlovchi materiallar.

**Prezentatsiya** (taqdimot; lot. “praesentatio” - taqdim etish) - muayyan mavzu yoki muammo bo‘yicha o‘quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog‘ozlari (oddiy yoki vatman qog‘ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proyektor, protsesor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi.



Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchiga o'z ishida yordam beradi:

passiv tinglovchilarni faol ishlarga jalb qilish;

ta'lim faoliyatini yanada vizual va intensiv holga keltirish;

kognitiv qiziqishni faollashtirish;

o'quvchilarga yo'naltirilgan va tabaqalashtirilgan ta'lim yondashuvlarini amalga oshirish;

o'qituvchining o'zini tarbiyalash, uning mehnatga qiziqishini shakllantirish;

fikrlash jarayonlarini faollashtirish (tahlil, sintez, taqqoslash va boshqalar);

AKT o'qituvchiga turli uslubiy tadbirlarda, masalan, video-master-klasslar, veb-seminarlar va boshqalarda kengroq muloqot qilish imkoniyatini beradi.

qog'ozli ommaviy axborot vositalari bilan ishlash sezilarli darajada kamayadi, chunki deyarli barcha matnli ma'lumotlar elektron shaklda to'planadi va saqlanadi va hk.

### ***Bo'lajak mutaxassislarni kreativ kompetentligini rivojlantirishda Media-ta'lim texnologiyasi***

Media-ta'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini namoyon etadi.

Media-ta'lim - bu "shaxs ongini ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalari hamda materiallari asosida rivojlantirish jarayonidir". Dunyoda media-ta'lim ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar YUNESKO tashkilotining rezolyutsiya hamda tavsiyalarida media-ta'lim muhimligi alohida ta'kidlangan bo'lib, media-ta'lim rivojlanishi qo'llab-quvvatlagan hamda turli texnologiyalar bilan uzviy bog'langan ravishda rivojlanadi va insonlarni quyidagi faoliyatlarga yo'naltiradi:

1. Media-matnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish.

2. Media-mahsulotlari (matn, video-audio) manbalarini topish va ularning quyidagi:

~ siyosiy;

\* iqtisodiy;

✎ madaniy;

✎ iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash va ularni asl ma'nosini o'rganish.

3. Media-mahsulotlarini tushunish.

4. Shaxsiy media-mahsulotlarini yaratish, tarqatish va ularga qiziqadigan auditoriyaga ega bo'lish.

5. O'rganish hamda yaratgan media mahsulotlarni hayot tarzini aniqlash.



Media-ta'lim — bu media mahsulotlari bilan:

\* madaniyatini kommunikativ imkoniyatlari tanqidiy tafakkuri mediamatnini to'liq qabul qilish;

\* intepritatsiya etish;

~ tahlil qilish hamda baholashdan iborat.

Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish, tahlil qilish va ijodiy faoliyatda foydalanishda media-ta'limning o'rni beqiyosdir. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media-resurslarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Xorijiy media-ta'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining ijodiy rivojlantirish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi. Jahon mediapedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy usullaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Media-ta'lim usullari asosan keyingi muhim bosqichlarga bo'linadi.

1. Media-nazariyasi, uning tarixi, strukturasi hamda tili haqida bilim olish (o'qitish media-texnologiyasi);

2. Mediamatnlarni qabul qilishni rivojlantirish «o'qish, ang-lash, tasavvurni faollashtirish, xotirani rivojlantirish, fikrni turli usullarini rivojlantirish» (kritik, ijodiy, intuitiv hamda obraz yaratish).

Media-ta'lim faoliyatini olib borish uchun ma'lum bir professional bilim ko'nikma va ko'rsatgichlariga ega bo'lish lozim:

○ maxsus yo'naltirilgan mediata'lim sohasida nazariy bilimlar hamda eng so'nggi axborotlarga ega bo'lish darajasi;

○ motivatsiyalashgan ko'rsatgich.

Masalan, ta'lim jarayoniga:

○ aqliy;

○ vizual;

○ sensor;

○ audio bo'lgan faoliyat;

○ tezkor media-ta'lim sohasida metodik ko'nikmalarini darajasi, masalan, media-manbalarni va ulardagi axborotlarni ijodiy yondashish orqali qabul qilish.

○ Kreativ - ijodiy media-ta'lim faoliyatidagi ijodiy fikrlash darajasi. (mobillilik, kommunikativlik, o'ziga xoslik, tasavvurni rivojlantirish fantaziya kabi xususiyatlarga ega bo'lish).

Media-ta'lim - bu butun hayot uchun konsepsiya deyiladi. Ta'lim sohasida axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ishlash va materiallardan ongli foydalanish ko'nikmasi hosil qilinadi. Bu, o'z navbatida, mediata'limni rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki bu masala bugungi kunda quyidagi jihatlari bilan dolzarb bo'lib qolmoqda:

○ mediavositalar orqali ta'lim sohasiga oid e'lon qilinayotgan materiallar mazmunini tahlil vositasida qabul qilish;

○ ta'lim sohasiga doir mediamateriallarni eng to'g'ri va maqbullarini qabul qilish;

○ mediavositalarda e'lon qilinayotgan materiallarning media - ta'lim talablariga moslari asosida, bo'lajak mutaxassislarning dunyoqarashini ongli darajada shakllantirishga erishish.

Bunda, asosiy e'tibor talabalarning ma'lumotlar va manbalar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi kerak. Chunki

ma'lumotlar bilan ishlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish ta'lim sohasida eng qulay va ta'sirchan usullarni egallash imkoniyati paydo bo'ladi. O'zgacha aytganda, mediapedagog zamonaviy axbo-rot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, Media-ta'limni samarali olib boruvchi pedagog-tarbiyachidir.

Media-ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda quyidagi qonuniyatlar birlamchi bo'lishi kerak:

CD yangi pedagogik texnologiyalarning eng ilg'or jihatlarini o'zlashtirish;

CD eng maqbul va samarali metodlarga asoslanish;

CD axborot - kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanish.

Media-ta'lim texnologiyasida talabalarni tayyorlash uchun modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Media-ta'limning asoslari bilan maxsus tanishtirishga ehtiyoj bor. Buning uchun Media-ta'lim texnologiyasining negizlarini shakllantirish lozim bo'ladi.

Media-ta'lim texnologiyasida quyidagi spetsifik xususiyatlar mavjud:

CD media materiallarining mudom yangilanib turishi;

media materiallarning turli - tumanligi va rang - barangligi;

CD media materiallarning didaktik ishlov berishligiga zarurat sezishi. Bu spetsifik xususiyatlar talabalar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak.

Media-ta'lim texnologiyasida texnik vositalarsiz samaraga erishib bo'lmaydi. Shu sababli, u quyidagi imkoniyatlarni beradi: CD masofadan turib o'qitish;

tasvirli mashg'ulot olib borish;

CD erkin muloqotga kirishish;

CD darsning o'zida samarani ilg'ash.

Media-ta'lim texnologiyasidan foydalanish masalasida quyidagi fikrlarga kelish mumkin:

Media-ta'lim texnologiyasi radio, televidenie, internet va boshqa axborot - kommunikatsion vositalari asosida o'qitishga asoslanadi.

Media-ta'lim texnologiyasiga ko'rgazmalilik, tasviriylik, faktik yangilik, tezkorlik, uzluksiz va aloqadorlik xosdir. Aynan ko'rgazmalilik, tasviriylik va tezkorlik bo'lajak maktabgacha ta'lim

tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda ahamiyati kattadir.

Ilmiy tadqiqot ishimizning tajriba-sinov dasturini o'tkazish mobaynida bo'lajak maktabagacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bir qatorda bo'lajak tarbiyachilarining kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida ulardan to'g'ri foydalanishga o'rgatishda hamda media kompetentligini rivojlantirishda samarali xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir.

## **6 - mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv**

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishimizning asosiy mohiyati ham shundan iboratki, ularda kelgusida kasbiy faoliyatlari davomida ta’lim tarbiya jarayonini oli b borishda “Ilk qadam” davlat dasturi asosida sohalar, markazlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning bir-biriga bog‘liqligi, o‘zaro integratsiyasini tashkil etishga nisbatan kreativ yondashuvini rivojlantirishdan iboratdir. Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda ko‘plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Mazkur holat, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar o‘rtasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Pedagogik integratsiya pedagogik nazariya va amaliyotning rivojlanish prinsipi sifatida ilmiy va amaliy faoliyatning rivojlanishi zamonaviy bosqichi xususiyatlarini aks ettiradigan, uni amalga oshirgan holda tobora yuqori ijobiy natijalarga erishishni kafolatlaydigan yetakchi g‘oyadir. Bugungi kunda integrativ-pedagogik konsepsiyalar - ma'lum bir sohada, ta'lim maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish va samarali natijaga erishishning muayyan darajasida integrativ-pedagogik faoliyatning yo‘nalishi va mazmunini belgilovchi tizimlashtirilgan g‘oyalar, qarash va qoidalar majmuasi mavjudligi haqida ta'kidlashimiz mumkin. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim masalalaridandir. Shubhasiz, hozirgi zamon pedagogikasi bo‘lajak tarbiyachilarining kasbiy va ijodiy, kreativ kompetentligi shakllanishi uchun ta'lim jarayonida o‘qitishning yangi usullarini joriy qilishni talab qilmoqda. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta'limda integratsiyaning birligi fenomeni haqidagi ilmiy-amaliy axborotlarni tadqiq qilish,

integrativ yondashuv tushunchalarini bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi tizimini tavsiflash uchun qo'llashning maqsad- ga muvofiqligini tahlil qilishga asoslanadi. Ma'lumotnoma xarakteridagi adabiyotlar asosida bajarilgan integratsiya tushunchasining kontent-tahlili uning asosiy va muhim talqinlarni birlashtiradigan, ta'limga ham aloqador bo'lgan xususiyatlarini ajratish imkonini beradi.

Zamonaviy dunyoda integratsiya tushunchasi juda keng qo'llaniladi va turli jihatlarida ko'rib chiqishni taqazo etmoqda.

- Fanlararo va fanlararo aloqalarni o'rnatish, turli ta'lim dasturlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali ta'lim mazmunining yaxlitligiga erishish jarayoni va natijasidir.



*Integratsiya –*

«Macmillan Yenglis'h Dictionary for Advanced Learners» lug'atida esa quyidagicha izohni yoritib o'tadi:

**Integral (integral)** - to'liq bo'lishi uchun biror bir qismni yaxlitlash;


**Integratsiyalash (Integrate)** - Ikki yoki undan oshiq narsalarni to'liq tizim yoki bo'lak bo'lishi uchun birlashtirish.

**Integratsiya (Integratsion)** - narsalarni, odamlarni yoki turli xil fikrlarni bitta qilib jamlash, jamlab olmoq degan ma'noni anglatadi.

Integratsiya - nazariyalar va tizimlar tushunchasi bo'lib, alohida differensial tizimlarning bir butunga bog'lanish holatini yoki shu bog'lanishga olib keladigan jarayonni anglatadi. (Ensiklopedik lug'at)

Bugungi kunga qadar lug'at yoki ma'lumotnomalarda "integratsiya" tushunchasining aniq bir uslubiy ta'rifi topilmagan. Ushbu muammo bilan uzoq vaqtdan beri shug'ullanib kelinganiga qaramay, bu xususida hali ham yagona nuqtai nazar mavjud emas.

(lotincha - butun) - qismlarni qayta tiklash, to'ldirish, bir butunga birlashtirish, mexanik emas, balki o'zaro kirish, o'zaro ta'sir, o'zaro qarash, o'zaro ifodalash va o'zaro amalga oshirishni anglatadi.



XX asr davomida integratsiya ta'limning turli darajalarida o'qituvchilar tomonidan turli xil mavzularning uyg'un kombinatsiyasi sifatida ishlatilgan, bu esa bolaning dunyoni bilishiga yaxlitlik olib kelish imkonini berdi. Integratsiya muammosiga alohida qiziqish 20-asr oxirida paydo bo'ldi. Shu bilan birga, "integratsiya" atamasi ham paydo bo'ldi. XXI-asrga kelib, fanlararo aloqa o'zaro yaqin tushunchalarga asoslanib, yoki aloqador mavzular doirasida ularning mohiyatini o'quvchiga tushuntirishda ta'limni tizimli yaxlitlashtirish, uzviylashtirish o'zaro mujassamlash asosida bilim berish - ta'lim mazmunini integratsiyalash muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotchilar integratsiyani turlicha talqin qilishadi:

♦ N.S. Svetlovskaya integratsiyani "ilgari farqlangan bir necha elementlarda (o'quv predmetlari, faoliyat turlari va boshqalar) bir xil turdagi aniqlangan elementlar va qismlar asosida yangi yaxlitlik yaratish, so'ngra ushbu elementlar va qismlarni ilgari mavjud bo'lmagan maxsus sifat monologiga moslashtirish" deb tushunadi. Uning fikriga ko'ra, integratsiya qilishning muhim sharti - bu bir qator predmetlar va metodikada bitta maqsad va funksiyaga tabiiy bo'ysunish asosida material qurish.

♦ V. S. Kukushkin "integratsiya - bu bir yoki bir nechta turli xil o'quv predmetlari bo'yicha bo'linmagan bilimlar yaxlitlik xususiyatiga ega bo'lgan tizimga birlashtirish jarayoni" deb hisoblaydi. Tarqoq bilimlarni bir butunga birlashtirish talabalarga zamonaviy hayotda nihoyatda muhim bo'lgan asosiy narsani ajratib ko'rsatish, tahlil qilish va umumlashtirishni o'rganishda yordam berish uchun juda muhimdir. Integratsiyalashganda, bitta akademik intizom




doirasidan chiqib ketish, vizual ravishda, amalda, dunyodagi hamma narsalar bir-biriga bog'liqligini ko'rsatish va shu bilan birga sizning mavzuni o'rganish motivatsiyasini oshirish mumkin bo'ladi.

♦ I. D Zverev va V.N.Maksimova pedagogikada integratsiyani uzluksiz bog'langan, yagona, yaxlitlikni yaratish jarayoni va natijasi deb bilishadi. O'qitishda u turli xil o'quv predmetlarining elementlarini bitta sintez qilingan kursda (mavzu, bo'lim, dastur) birlashtirish, turli fanlarning ilmiy tushunchalari va usullarini umumiy ilmiy tushunchalar va bilish usullariga birlashtirish, fanlararo ta'lim muammolarini ochishda fanlarning asoslarini birlashtirish va umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.


Zamonaviy pedagogik adabiyotda "fanlararo aloqalar" toifasining 30 dan ortiq ta'riflari mavjud, ularni asoslash va tasniflash bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari bilan mashhur pedagoglar Ya. Kamenskiy, D.Lokk, I. Gerbart, M. Pestalotssi, K. Ushinskiy, G.I.Belinskiy, I.D.Zverev, D.M. Kiryushkin, P.G.Kulagin, N.A.Loshkareva, V.N.Maksimova, T.F.Fedorets kabi taniqli olimlar shug'ullanishgan. Integrativ yondashuvga asoslangan qator tadqiqot ishlar T.G.Raizaeva, G.N. Akvileva, D.I. Troytap, G.V. Baltyukova, N.Ya, N.Ya.Velkin, T.S. Nazarova, R. Mavlonova, B.S. Abdullayeva, M.Zaripova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

“Pedagogik integratsiya” tushunchasining N.K. Chapaev va V.M.Monaxov tomonidan berilgan ta'rifi o'ziga xos ahamiyatga ega sanalib, ular insonning ko'p o'lchamli va yaxlit tabiatidan kelib chiqadi, shu bilan bog'liq tarzda, pedagogik integratsiyaning uchta fundamental chizig'ini ajratadi: 1-insonning tashqi olam bilan integratsiyasi; 2-insonning boshqa odamlar bilan integratsiyasi”; insonning o'z-o'zi bilan integratsiyasi. Bo'lajak tarbiyachilarini kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning psixologik-pedagogik ta'minotining muhim tarkibiy qismi ularni integrativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatga tayyorligi hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuvini va kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ta'limni integrativ yondashuv asosida ta'limning


integratsiyasini va integrallashgan darslarni, kurs va mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish, kutilayotgan natijaga samarali erishishda zamin yaratadi.



**Ta'lim integratsiyasi** - faollik yondashuviga asoslangan voqelikning tabaqalashtirilgan tasviridan yaxlit tasvirga o'tish, fanlararo aloqalarni shakllantirish, muammoli va izlanish usullari va o'qitish usullarini o'qitishga keng joriy etish.



**Integratsiyalashgan dars** - bu maxsus tashkil etilgan dars bo'lib, uning maqsadiga faqat turli ta'lim yo'nalishlaridagi bilimlarni birlashtirish orqali erishish mumkin, bu o'quvchilarning o'rganilayotgan masalani yaxlit idrok etishiga erishish imkonini beradi, amaliy yo'nalishga ega.



O'qitishda integrativ yondashuvning bir qancha asosiy g'oyalari mavjud:

- Ta'limning shaxsga yo'naltirilishi;
- Umumlashtirilgan fan tuzilmalarini va faoliyat usullarini shakllantirish;
- O'rganishda ma'no shakllantiruvchi motivlarning ustuvorligi; - Tizimli ravishda o'qitish;
- O'qitishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish;
- Integrativ jarayonlarda ko'zlanayotgan maqsadlarga erishish;
- O'zaro muloqotda bo'lish va fikrlar almashinuvi.

Integratsiyalashgan darslar fanlararo aloqalarning an'anaviy qo'llanilishidan farq qiladi, ular faqat epizodik ravishda boshqa fanlardan materiallarni kiritishni o'z ichiga oladi. Integratsiyalashgan darslar bir mavzuga bo'ysunadigan turli fanlar bo'yicha bilim bloklarini birlashtiradi. Shuning uchun integratsiyalashgan darsning asosiy maqsadini to'g'ri belgilash juda muhimdir. Agar umumiy maqsad aniqlansa, u holda obyektlar mazmunidan faqat uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olinadi. Yetarli miqdordagi integral darsliklar yaratilgunga qadar, materialni tanlash va tizimlashtirish o'qituvchi uchun oson ish emas.

Fanlararo integratsiya bir o'quv fanining materialidan boshqasini o'rganishda foydalanishda namoyon bo'ladi. Bu darajada olib boriladigan mazmunni tizimlashtirish talabalar ongida o'rganilayotgan obyektning yaxlit tasavvurini shakllantirish kabi "kognitiv" natijaga olib keladi. Odatda fanlararo integratsiyada zaif, o'rta va yuqori darajalar farqlanadi. Integratsiyaning zaif (past) darajasi odatda subyektlararo bog'lanish deb hisoblanadi, qachonki bitta mavzu materialini o'rganayotganda, boshqa mavzuning materiali epizodik ravishda kiritilsa (faktlar, illyustratsiyalar, tushunchalar, musiqiy qismlar va boshqalar). Shu bilan birga, har bir fanning o'ziga xos maqsad va vazifalariga ega bo'lgan mustaqilligi saqlanib qoladi. Integratsiyalashgan dars o'rtacha darajadagi integratsiya deb hisoblanadi, bunda talabalar uchun o'ta qiyin bo'lgan obyekt bir necha o'quv predmetlari yordamida har xil tomondan o'rganiladi, ammo shu bilan birga yana har bir mavzuning mustaqilligi umuman saqlanib qoladi. Yuqori daraja - bu integral kurslarni yaratishdir.

Insoniyat tarixiga, jumladan fan tarixiga nazar tashlasak, fanlar kishilarning amaliy ehtiyojlari tufayli yuzaga kelib so'ngra "shoxlab" o'sib rivojlana borgan, vaqt o'tishi bilan fanlarning differensiyasi-tarmoqlanishi yuzaga kelgan. Inson ongining rivojlanishi, aql tafakkuri bilimlarga umumlashtirish ko'zi bilan qaragan. Integrallash qomusiy ajdodlarimiz Zardushtiy, Aristotel, Muso al-Xorazmiy, al-Farobiy, Axmad al-Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ulug'bek kabi o'nlab ma'naviy yuksalish davrini daholarining g'oyalarida yuzaga kelgan. "Integratsiya" tushunchasi 83

bevosita XVIII asrlarda G.Spenser tomonidan o'z qo'lyozmalarida qo'llanilgan. Integratsiya tushunchasining mazmuni keng qamrovli bo'lib, koinotdagi jismlararo mujassamlashuvdan tortib, fanlararo bilimlarning integratsiyalashuvigacha obyektiv tarzda qaraladi. Tadqiq etilayotgan obyektни integrativ holda o'rganish, obyektни har tomonlama aloqalar, munosabatlar jihatlarini mukammal bilishga imkon beradi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi uni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro aloqadorligi, o'zaro munosabatlari tashkil etadi. Pedagogik, ta'limiy jihatdan esa integratsiya, uzviylik, fanlararo va o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida, insonning egallashi lozim bo'lgan tarix, handasa, riyoziyot, falakiyot, falsafa fanlarining ahamiyatini, "Saydana" asarida, borliqni o'rganishda, ularning obyektlarining o'zaro aloqasi haqida malumotlar keltirib o'tgan.

Pedagog olimlar va tadqiqotchilar integratsiyani turli yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya qiladilar. Bular:

- o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmuni integratsiyalab o'rganish;
- turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi:

- z birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;
- / ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Ta'lim jarayonida integratsiya deganda nimani tushuniladi? Didaktikada bu konsepsiyani talqin qilish bo'yicha yagona nuqtai nazar yo'q. Integratsiyaning aniqroq va kengroq ta'rifi S. V. Kulnevich, T.T. Lakocenin ishlarida berilgan. "Zamonaviy dars tahlili": "Integratsiya - bu ma'lum bir sohadagi umum- lashtirilgan bilimlarni iloji boricha bir o'quv materialiga chuqur kirib borish,

birlashtirish".

Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o'z navbatida bo'lajak tarbiyachilarini hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi- kreativ shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Integratsiya yondashuvlari talabalarning kasbiy va shaxsiy intilishlarini bog'lash, ularga kasbiy va kreativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda yordam berish imkonini beradi.

Integrativ yondashuv" tushunchasi "Pedagogika" ensiklopediyasida quyidagicha yoritib berilgan: integrativ yondashuv - ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi obyektga bir necha yondashuvlar (vaziyatli, tizimli, innovatsion va h.k..)ni birgalikda qo'llashni anglatuvchi tushuncha ekanligi yoritib berilgan. Ushbu atama umumlashtirilgan yondashuvlarni ifodalaydi.

**Integral yondashuv –**

pedagogik jarayonning har qanday komponentida integratsiya tamoyilini amalga oshirishni anglatadi.

## Integratsiyalashgan darslar turli shakllarda bo‘ladi:



Bilim almashish darsida talabalar guruhlariga bo‘linadi va har biri boshqalarga berilgan mavzu bo‘yicha o‘z tadqiqotlari haqida ma‘lumot beradi. Ushbu shakl o‘quv fanlari mavzulari bir-biriga mos kelganda eng samarali hisoblanadi. O‘zaro tekshirish darslarida guruh va juftlikda ish olib boriladi. Bu talabalardan juda ko‘p dastlabki tayyorgarlikni talab qiladi. Obyektiv va aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish ayniqsa muhimdir. Ijodiy qidiruv darsi talabalar muammoning yechimini mustaqil izlaydilar, deb taxmin qiladi. Ammo qidiruv usullari o‘qituvchilar tomonidan oldindan yaxshi shylangan va oldingi darslarda talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan. Kurs uchun nazorat darslari ijodiy ishlar (loyihalar) sifatida o‘tkazilishi mumkin.

Integrativ yodashuv asosida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda qanday vazifalar hal qiladi? Ushbu vazifalardan ba'zilari:

- nostandart shakl tufayli ta'lim faoliyatining motivatsiyasini oshirish;

- turli fan sohalarida qo‘llaniladigan tushunchalarni ko‘rib chiqish;

- aqliy operatsiyalar bilan maqsadli ishlarni tashkil etish: taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, tahlil qilish, sintez qilish va boshqalar;

predmetlararo aloqalarni va ularning turli masalalarni yechishda qo‘llanilishini ko‘rsatish;

- talabalarda ilmiy qarashlar, yaxlit dunyoqarash shakllantirish;

- talabalarning ijodiy tafakkurini, intellektini va hissiy obrazli his-tuyg‘ularini yangi sifat darajasida rivojlantirish.

Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga integrativ yondashuv asosida ta'limni tashkil etishda eng avvalo, “kreativlik” so‘zini yana bir bor tahlil qilishimizga to‘g‘ri keladi. Xo‘sh, kreativlik nima? “Kreativlik - bu alohidalik emas, balki mahsuldor tafakkurga tegishli shaxsiy qobiliyat bilan taqozalangan umumiy qobiliyatdir”.

”Kreativlik - bu inson aqliy salohiyatining yuksak darajasi hisoblanib, obyektidagi aloqadorliklarni tahlil qilish va o‘zgartirish

asosida yangi mazmunni yaratadi'. Tahlilimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, "kreativlik" va "integrativ yondashuv" tushunchalari bevosita o'zaro bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida talabalarga mutaxassislik fanlari darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalangan holda kreativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, ularning kelgusi faoliyatlarida "Ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga qo'yiladigan talablar" asosida mashg'ulotlarni tashkil etishlarida kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirishning asosiy omili deb hisoblasak, mubolag'a bo'lmaydi. Kreativ bo'lish hamisha original, qandaydir yangilikni yaratishdir. Kreativlik - bu tafakkur qobiliyati, har qanday hayotiy jarayonga tegishli yondashuv. Mazmuniga ko'ra kreativlik - bu har kungi hayotda: ishda, munosabatlarda, o'qishda va o'z ongini boyitishdagi kreativ kompetentlikdir.

**Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda mutaxassislik fanlar darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish:**

Mutaxassislik fanlar darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish talabalarga turli fanlar bo'yicha olgan bilimlarini bir butunlikda birlashtirishga, umumiy ma'lumot olishga yordam beradi. Integratsiyalashgan mashg'ulot har bir talabani faol bilish jarayoniga jalb qilish imkoniyatini taklif qiladi va bu jarayon bilimni passiv o'zlashtirish emas, balki har bir talabaning faol kognitiv mustaqil faoliyatidir, chunki har kim o'ziga yaqinroq bo'lgan sohada o'zini ko'rsatish va olgan bilimlarini amalda qo'llashda ijodiy yondashish imkoniyatiga ega. Integratsiyalashgan mashg'ulot an'anaviy mashg'ulotdan fanlararo aloqalardan foydalanishda farq qiladi, bunda faqat vaqti-vaqti bilan boshqa fanlardan materiallarni kiritish nazarda tutiladi. Undagi tahlil predmeti ko'p qirrali obyektlar bo'lib, ularning mohiyati haqidagi ma'lumotlar dasturning turli dasturlari yoki bo'limlarida mavjud.

Integratsiya nafaqat o'quv materialining maxsus birikmasi, balki o'quv materiallarini har xil pozitsiyalardan tahlil qilishni, asosiy narsani ajratishni, yangi jihat bilan ma'lum bo'lgan operatsiyalarni, ta'lim muammolarini hal qilishni, ijodiy xarakterdagi vazifalarni bajarishni o'z ichiga olgan o'quv faoliyatini tashkil etish usulidir. Integratsiya darsni hamkorlikka yo'naltirishga imkon beradi, bu yerda fikrlar qarama-qarshi bo'lishi mumkin, ammo har qanday fikr hamma tomonidan hurmat qilinadi, hatto ular bunga rozi bo'lmasalar ham. Bu eng qadri fazilatlardan birini rivojlantirishga yordam beradi: boshqasini tinglash, uning dalillariga kirish, birovning nuqtai nazarini o'z nuqtai nazaringiz bilan solishtirish. «Darsda o'rganilgan mavzu bo'yicha fikr yuritadiganlarga tegishli bo'lish hissi darsning motivatsion sohasining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu tuyg'u barcha ehtirolarning eng insonini - bilimga bo'lgan ishtiyoqni rivojlantirishga qodir» (V.A. *Suxomlinskiy*).

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda kasbiy faoliyatda ta'limni tashkil etishda integratsiyani amalga oshirish bo'yicha ishni boshlashdan oldin bir qator muhim harakatlarni bajarish kerak: / integratsiyalashuvi maqsadga muvofiq bo'lgan va talabalarda o'rganilayotgan obyektning yaxlit ko'rinishini yaratishga yordam beradigan bilim sohalari aniqlash;

\_ / tahlil qilish va ushbu sohalardan integratsiyalashuvi eng muhim bo'lgan tarkibni tanlash;

\_ z talabalarning mutaxassislik doirasida dastur talablari va bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olish;

\_ z ta'lim mazmunini integratsiyalashning bir yoki bir nechta asosiy yo'nalishlarini belgilash;

\_ z talabalarning turli xil fikrlash turlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'p miqdorda turli xil vizual materiallardan (namoyish, tarqatma material, o'yin) foydalanish;

\_ s talabalar bilan ishlashda (muammoli vaziyatlar, mantiqiy topshiriqlar, eksperiment, modellashtirish va boshqalar) samarali xarakterga ega bo'lgan usul va usullardan foydalanish;

integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida talabaga yo'naltirilgan yondashuvni hisobga olish;



\_z talabalarning loyiha faoliyatini boshqarish, shu jumladan, fanlararo loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirish.

Ma'lumki, o'qitish ishlarida yuqori samaradorlikka erishish dars turlari, tiplari, shakllari va o'quv mazmuniga mos keluvchi o'qitish usullarini, ya'ni ta'lim texnologiyalarini tanlash hamda ularni qanday qo'llashga bog'liqdir. Bo'lajak tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish maqsadida integrativ texnologiyalardan (integrativ materiallardan) keng foydalanishda quyidagi faktorlarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

**a)** har bir o'qituvchi integratsiya, integrativ yondoshuv, integrativ material va uni tanlash tamoyillari, integrativ texnologiyalar haqida nazariy bilimlarini takomillashtirib, ularni amaliyotda qo'llashning noana'naviy usullarini ishlab chiqarishlari lozim;

**b)** har bir darsni imkon qadar, integratsiya tamoyillari asosida tashkil etishlari maqsadga muvofiqdir;

**d)** dars jarayonida har bir talabaga, uning bilim darajasini, qobiliyatini inobatga olgan holda, integrativ yondashuvni (ayniqsa, amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida) amalga oshirishga ijodiy yondoshishi zarur;


**e)** har bir mavzu uchun dars loyihasini ishlab chiqarishda eng samarali integrativ texnologiya elementlarini tanlash va ularni qo'llash joizdir.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kelgusidagi kasbiy faoliyatlariga kreativ yondashuvi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda "Ilk va maktabgacha ta'lim davlat talablari" sohalariga integrativ yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etishdan oldin ushbu davlat talablari asosida bolalarni rivojlantirishning asosiy va kichik sohalari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ta'lim faoliyatidagi mashg'ulotlarni tahlil qilish muhim deb hisoblaymiz. Chunki, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash, milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan birgalikda kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash ustuvor vazifalari etib belgilab qo'yilgan. (Ilk qadam davlat dasturi, 07.07.2018) Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi.



Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan ( kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat:



**“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”  
sohasi quyidagi kichik sohalarga  
bo‘linadi:**

“Men” konsepsiyasi;  
hissiyotlar va ularni boshqarish;  
ijtimoiylashuv, kattalar va  
tengdoshlar bilan muloqot.

**“Nutq, mulbqot; o‘qishi va  
yozish malakalari” sohasi  
quyidagi kichik sohalarga  
bo‘linadi:**

**“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom  
turmush tarzining shakllanishi”  
sohasi quyidagi kichik sohalarga  
bo‘linadi:**

yirik motorika;  
mayda motorika;  
sensomotorika;  
sog‘lom turmush tarzi va  
xavfsizlik.

nutq va til;  
o‘qish malakalari;

qo'l barmoqlari mayda  
motorikasi.

## **1. “Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi” sohasi**

1.1 o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi

1.2 turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi

1.3 turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi

1.4 o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi


1.5 shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini qo'llaydi

1.6 xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi

## **2 . Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**

2.1 o'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi

2.2 o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos



**“Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:**

intellektual-anglash malakalari;

elementar matematik malakalar;

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

**Ijodiy rivojlanish” soha quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:**

dunyoni badiiy tasavvur etish;

badiiy-ijodiy qobiliyatlar

ravishda ifodalaydi

2.3 o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi

2.4 kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi

2.5 murakkab vaziyatlardan amaliy chiqish yo'llarini topadi

### **3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari**

3.1 nutqni eshitadi va tushunadi

3.2 o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi

3.3 ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi

3.4 ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi

3.5 badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi

3.6 so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi

3.7 turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi

3.8 yozishning dastlabki ko'nikmalari va vositalaridan foydalanishni biladi

### **4. Bilim olish jarayonining rivojlanishi**

4.1 bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi

4.2 o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi

4.3 predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi

4.4 raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi

4.5 makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi

4.6 elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi

4.7 atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi

4.8 atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r

munosabatni namoyon etadi

## **5. Ijodkorlik**

5.1 san'at va madaniyatga qiziqish bildiradi


5.2 milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi

5.3 milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi

5.4 olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi


5.5 insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Integratsiya amalga oshirilishi mumkin bo'lgan sohalardan ayrimlaridan namuna keltiramiz:



Biz davlat o'quv dasturini o'rganishimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida tashkil qilinadigan 5ta markazda olib boriladigan mashg'ulotlarning o'zaro aloqadorligi va bog'liqlini ya'ni mashg'ulotlar integratsiyasini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:



1. Til va nutq markazi. (Nutq o‘stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar)



2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg‘ulotlari)

3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)



5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari).



**Til va nutq markazida** bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bola markazda o‘zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

**Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika marka- zida** bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish - yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarning muloqatida qo‘shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi. Savodxonlik mashg‘ulotlarida sanoq cho‘plar yordamida harflar yasash orqali matematik tasavvurlar ham rivojlantiriladi.

**San'at markazida** bolalarni kayfiyatini ko‘tarish imkoni mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari qo‘llab-quvvatlanadi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda



motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

**Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashirilgan markaz** bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali axloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi. Ertaklar orqali ijtimoiylashuv, kattalar bilan muloqotga o'rgatish, hissiyotlar va ularni boshqarishga o'rgatiladi.

**Ilm-fan va tabiat markazida** tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari orqali bolalar dunyoni anglaydi, tadqiq qiladi va samarali amaliy faoliyatni o'rganadi. Oddiy tajribalar orqali malaklar rivojlantiriladi.

Maktabgacha ta'lim sohasida ta'limda integratsiyani amalga oshirish bo'yicha ishni boshlashdan oldin bir qator muhim harakatlarni bajarish kerak:

integratsiyalashuvi maqsadga muvofiq bo'lgan va bolada o'rganilayotgan obyektning yaxlit ko'rinishini yaratishga yordam beradigan bilim sohaslarini aniqlash;

tahlil qilish va ushbu sohalardan integratsiyalashuvi eng muhim bo'lgan tarkibni tanlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarning dastur talablari va yosh xususiyatlarini hisobga olish;

ta'lim mazmunini integratsiyalashning bir yoki bir nechta asosiy yo'nalishlarini belgilash;

bir-biri bilan integratsiya qilish qobiliyatiga ega bo'lgan turli xil tadbirlardan foydalanish (masalan, qurilish materialidan qurilish

bilan ertakni drammatizatsiya qilish , musiqiy hamrohlik va bolalarning faol nutqiga nominativ va konseptual lug‘atni kiritish);

maktabgacha yoshdagi bolalarning turli xil fikrlash turlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko‘p miqdorda turli xil vizual va atributli materiallardan (namoyish, tarqatma material, o‘yin) foydalanish;


bolalar bilan ishlashda (muammoli vaziyatlar, mantiqiy topshiriqlar, eksperiment, modellashtirish va boshqalar) samarali harakterga ega bo‘lgan usul va usullardan foydalanish;

integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida bolaga yo‘naltirilgan yondashuvni hisobga olish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan olib boriladigan mashg‘ulotlar quyidagilardir:

	Mashg‘ulotlar nomi	Kichik guruh (3-4yosh)	O‘rta guruh (4-5 yosh)	Katta guruh (5-6 yosh)	Tayyorlov guruh (6-7 yosh)
1	Atrof olam bilan tanishtirish Eksperimentlar-amaliy tajriba	1	1	2	2
2	Tabiat bilan tanishtirish	0,5	1	1	1
3	Badiiy adabiyot	0,5	1	2	1
4	Nutq o‘stirish	1	2	1	1
5	Sensor ta'lim	0,5	-	2	1
6	Elementar matematika	0,5	1	1	2
7	Rasm chizish	2	2	2	2
8	Applikatsiya	0,5	0,5	0,5	0,5
9	Qurish-yasash	0,5	0,5	0,5	0,5
10	Plastilin, loydan yasash	1	1	1	1
11	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2
12	Musiqqa	2	2	2	2
		12	14	17	18

Amaliyot shuni tasdiqlaydiki, quyidagi mashgʻulotlar kombinatsiyasi integratsiyalashgan mashgʻulotlar oʻtkazish uchun yaxshi asos yaratadi:



Bularning barchasi turli xil ta'lim yoʻnalishlarini birlashtirishga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida bir paytning oʻzida bir qancha bilim va qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

### **7-mavzu. Boʻlajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy vositalar**

Boʻlajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim vositalari ayniqsa zamonaviy

vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, ta'lim jarayonini didaktik vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida kasbiy faoliyatni o'yin texnologiyasi bilan bir qatorda ta'lim vositalarisiz tashkil etish qiyin. Ta'lim vositalari, shuningdek, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari ta'lim tizimi va o'quv jarayonining tarkibiy qismi, shuningdek, har qanday ta'lim muassasasining o'quv-moddiy bazasining eng muhim tarkibiy qismidir. Ta'lim metodlari esa ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi.

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazorat qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

**Ta'lim vositalari** - bu o'qituvchiga talabalarning bilim va amaliy faoliyatini boshqarishda, ular oldida turgan vazifalarni hal qilishda: bilim berish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, ta'sir o'tkazishda va ularga bilim berishda yordam beradigan turli xil xarakterdagi maxsus qo'llanmalar va materiallar.

O'quv vositalari talabalarning aqliy faoliyatini safarbar qilish kabi muammolarni hal qilishga, yangilikni o'quv jarayoniga kiritishga, darsga qiziqishni oshirishga, materialni beixtiyor yodlash imkoniyatini oshirishga va o'rganilayotgan material hajmini kengaytirishga yordam beradi. Ta'lim vositalari ya'ni didaktik vositalar deganda o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida nimani o'qitish savoliga javob beradi. An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq,

o'quv ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihati albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir. Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlab olish bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi (kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi. Ta'limning faollikni nisbatan kam talab etadigan metodlari (o'quvchilar eshitadi, ya'ni hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta'limning ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta'limning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin. Faoliyat obyektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

**O'quv qurollari** - moddiy obyektlar va tabiiy tabiat obyektlari, shuningdek, ta'lim jarayonida o'quv ma'lumotlarini tashuvchisi va o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim, tarbiya va rivojlanish maqsadlariga erishish uchun faoliyati uchun vosita sifatida ishlatiladigan sun'iy ravishda yaratilgan vositalar.

**O'quv qo'llanmalari** quyidagilardir: o'quv adabiyotlari (kitoblar, ko'rgazmali qurollar, jadvallar, plakatlar); individual o'quv qo'llanmalari uchun ma'lumot materiallari (filmlar, videofilmlar, filmlar, tasvirli filmlar); o'quv jarayonini dasturiy va uslubiy ta'minlash (kompyuter texnologiyalari, o'qitish va nazorat qilish dasturlari, shaxsiy kompyuter dasturlari, grafik ishlar uchun topshiriqlar); maxsus jihozlar (simulyatorlar, trimmerlar); didaktik materiallar (darslar, o'yin ssenariylari, anketalar).

**Material ta'lim vositalari.** Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv texnik vositalar, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

**Ideal ta'lim vositalari** - bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar - bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya - abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya - nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar - mantiqiy muhokama, materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq. Ta'lim vositalaridan foydalanishda ko'rgazmalilik didaktik tamoyili muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar talabalarga o'quv materialini bayon etishda didaktikaning eng muhim prinsiplaridan biri — ko'rsatmalilik prinsipidan foydalanadilar.



Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlash va kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'limning zamonaviy vositalaridan foydalanish nafaqat ta'lim jarayonida sifatli va samarali natijaga erishish, balki bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini O'zbekiston Respublikasining 16.12.2019-yildagi **O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"** Qonuni 6-bob, 39-moddasida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari" da belgilangan ijodiy tashabbus ko'rsatish, ta'lim va tarbiya uslubiyotlarini, o'quv qo'llanmalari hamda ta'lim vositalarini erkin tanlash huquqi asosida kasbiy faoliyatlarini tashkil qilishda ta'lim vositalarini tanlashda ijodiy yondashuv uchun yetarlicha xizmat qiladi. Hozirgi zamonaviy pedagogikada zamonaviy didaktik vositalari tobora katta ahamiyat kasb etmoqda Jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini zamonaviy didaktik vositalari xususan, axborot kompyuter texnologiyalari ya'ni elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanma, elektron trenajyorlar, elektron praktikumlar, elektron ma'lumotnomalar, elektron ensiklopediyalar, elektron o'quv metodik-majmua (EO'MM), mobil ilovalar, multimedia va shu kabi boshqa ko'plab zamonaviy didaktik vositalarisiz tashkil etish kutilgan samara bermasligi mumkin. Ta'limning zamonaviy tizimida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda aniq o'quv-metodik vositalarni tanlash ehtiyoji tug'ilganda zamonaviy didaktik vositalariga o'qitishning an'anaviy vositalariga nisbatan ko'proq ustuvorlik beriladi. Metodika va didaktikaning rivojlanishida zamonaviy didaktik vositalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quv jarayonida zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish natijasida (ta'lim sifatini oshirish; o'quv tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish; talabalarning tanqidiy va nostandart fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, nostandart o'quv topshiriqlarini tayyorlash, ta'lim oluvchilar bilan individual ishlash va boshqalar natijasida) o'quv jarayonini o'quv-metodik vositalar bilan ta'minlashning tezkorligi ta'minlanadi. Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda AKTni qo'llash shakllaridan biri dars-prizentatsiya



hisoblanadi. Microsoft Office kompaniyasining Power Point taqdimot dasturi turli ko'rgazmali qurollarni birlashtirib, chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar, matnlar, video va ovoz yozuvlarini namoyish qilish uchun slaydlar yaratish dars uchun materiallar tayyorlash imkonini beradi. Taqdimotni yaratishda talabalarning hissasiga katta e'tibor beriladi, shuning uchun biz bu ishni loyiha faoliyati elementlari bilan ijodiy jarayonga aylantirishga harakat qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Talaba ma'ruza, xabar, referat uchun illyustratsiya sifatida turli ma'lumotlar manbalaridan (darslik matni, qo'shimcha adabiyotlar, internet, elektron darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar) foydalangan holda mashg'ulotlarda loyiha sifatida taqdimotlar yaratadi. Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun darsda interfaol ijodiy topshiriqlardan foydalangan holda, ijodiy muammolarni hal qilish, esseylar, hisobotlar yozish, mavzu bo'yicha krossvordlar tuzish, loyihalar yaratish va amalga oshirish bo'lishi mumkin. POWER Point dasturining bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun yana bir afzalligini mashg'ulotlar (tadbirlar, musobaqalar) uchun ko'rgazmali materiallar yaratishda turli xil yorqin ranglarning mavjudligi, animatsion rasmlar bilan ishlashning qulayligida ko'rishimiz mumkin.

## **Maktabgacha ta'lim mutaxassislik darslarida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan axborot texnologiyalari vositalari**

### **1. O'quv kompyuter dasturlarining asosiy funksiyalari:**

- o'quv jarayonini individuallashtirish va farqlash; xato diagnostikasi va teskari aloqa bilan monitoring qilish; ta'lim faoliyatini o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish;
- o'quv ma'lumotlarini modellashtirish va o'rganilayotgan jarayonlar yoki hodisalarni tahlil qilish;
- turli vaziyatlarda eng yaxshi qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish; fikrlashning ma'lum bir turini rivojlantirish (masalan,



vizual-majoziy, nazariy);

- o'rganish uchun motivatsiyani kuchaytirish (masalan, dasturning vizual vositalari yoki o'yin vaziyatlarining kesishishi tufayli);

- kognitiv faoliyat madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

**2. Multimedia ensiklopediyalari** - kerakli va foydali ma'lumotlarni tezda topish, mavzular, kreativ qobilyatlarni rivojlantiruvchi video yoki animatsiya fragmentlarini tomosha qilish; turli mavzulardagi fotosuratlar bilan tanishish; turli lug'atlar bilan ishlash va hokazo. Ensiklopediyalar yordamida nafaqat yuqori sifatli va qiziqarli taqdimot tayyorlash, balki guruhda yoki uyda mustaqil ishlash mumkin.

**3. Internet resurslari.** Amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar kompyuter dasturlarini ishtiyoq bilan o'zlashtiradilar. Elektron ta'lim tizimi foydalanuvchiga o'quv materiallari va ulardan olingan bilimlarni test topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy talablarga muvofiq, o'quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta'limda o'quv vositalaridan foydalanish o'zlashtirishni osonlashtirib, qiziqarlilik jihatini oshirmoqda.

**4. Multimedia taqdimotlari.** Bunday ishlar mashg'ulotlarning turli bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin: topshiriqlarni tekshirish shakli sifatida; muammoli vaziyatni yaratish usuli sifatida; yangi materialni tushuntirish usuli sifatida; o'rganilgan narsalarni mustahkamlash shakli sifatida; dars davomida bilimlarni tekshirish usuli sifatida.

**5. Kompyuter taqdimotidan** foydalangan holda darslar interfaol rejimda yangi materialni tushuntirish darslari va dars-ma'ruza va dars-umumiyashtirish, dars-ilmiy konferensiya, dars-loyiha himoyasi va integratsiyalashgan va Internet-konferensiya rejimida dars-taqdimot va dars-munozara darslardir. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda magnit doskalar, flesh-kardlar, smart interaktiv ta'lim vositalari va turli xildagi flipchart doska- lardan foydalanish mumkin.



Talabalar bilan ijodiy yondashuvni tashkil etishda, ularning kreativlik darajalarini aniqlash va bo‘lajak tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlar, seminar treninglar, kichik guruhlarda yoki jamoada ishlash mobaynida turli xil kerakli va foydali jihozlar : o‘quv qurollari va nostandart jihozlarning to‘g‘ri tanlashning ahamiyatli tomoni shundaki, faqatgina talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki ularda kasbiy faoliyatga qiziqish, mehr, ishtiyoq uyg‘otishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda foydalaniladigan o‘quv qurollari va nostandart vositalardan namuna sifatida keltiramiz:

**O‘quv qurollari:**

- Plakat qog‘ozlar;      - Rangli bo‘yoqlar;                      - Rangli qalamlar;
- Markerlar;                      - Har xil turdagi stikerlar; - Yelim;
- Rangli qog‘ozlar;      - Rangli yopishqoq kartochkalar va b;



- **Nostandart vositalar:**

- **Pufaklar;**

- **Stakanchalar;**

- **Qopqoqchalar;**

- **Koptokchalar;**

- **Karton qog'ozlar;**

- **cd - disklar va b/lar.**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy vositalardan foydalanish bilan bir qatorda nostandart vositalardan foydalanish, talabalarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini yanada uyg'otadi. Ularni qolipdan chiqib fikrlashga, jarayonga yangicha yondashishga undaydi. Bo'lajak tarbiyachilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga doir jarayonni biror bir metod yoki texnologiyadan foydalanish bilan birga zamonaviy va nostandart vositalarni uyg'unlashtirgan holda tashkil etish kutilgan natijani to'laqonli olishga imkoniyat yaratadi. Masalan, talabalarga ijodiy topshiriqlar berish paytida plakat qog'ozlar bilan birga qopqoqchalar taqdim etilib, ulardan foydalanishga ijodiy yondashgan holda biron bir ijodiy mahsulot yaratish vazifasini berishimiz mumkin. Yoki pufaklarga har xil turdagi suratlarni yopishtirib, ushbu suratlarni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda bog'lab biron bir hikoya yoki voqea hodisani yoritib berish vazifasini berish va shunga o'xshash talabalarda ijodiy faoliyatga motivatsiya uyg'otadigan metodlar va topshiriqlar ishlab chiqish ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

## **8-mavzu. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kelgusi faoliyatida ota-onalarni kreativ yondashishga o'rgatishda tashkiliy amaliy ishlarni yo'lga qo'yish**

Biz bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida ota-onalarni kreativ yondashishga o'rgatishda tashkiliy amaliy ishlarni yo'lga qo'yishda eng avvalo bo'lajak mutaxassislarda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila, mahalla hamkorligi mazmuni, maqsadi hamda hamkorlikni tashkil etish shakllari haqida bilim va tushunchalarini to'laqonli hosil qilishimiz zarur. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy va kreativ salohiyatini zamonaviy talablarga moslashtirib borish masalasidagi mavjud ilg'or tajribalarni va ish usullarini o'rganish, ilmiy tahlil qilish, umumlashtirish hamda bo'lajak tarbiyachilarining kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida oila bilan hamkorlik ishlariga kreativ yondashuvini rivojlantirish maqsad qilib belgilab olingan. Hamkorlik esa, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, bolalar va ularning ota-onalarining birgalikdagi ijodiy faoliyatini, qo'llab-quvvatlash va umumiy manfaatlar, o'zaro tushunish, hamkorlik va o'zaro ta'sir muhitini yaratishni anglatadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, barcha davlat va jamoat tashkilotlari birgalikda jipslashib, hamkorlikda faoliyat olib borsalar, ular faoliyatidagi ish samaradorligi ko'lami yanada kengayishiga shubha yo'q. Ularning har birining o'z ish yo'nalishlari mavjud bo'lsa-da, lekin pirovard maqsadlari yakdil, ya'ni ma'nan va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish va ularning farovonligiga erishishdir.

Ushbu sharaflil va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirishda "Oila - mahalla - maktabgacha ta'lim tashkiloti" hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, mustahkamlash va samaradorligini oshirish maqsadida Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustah-

kamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha video-selektor bo'lib o'tdi. Ushbu yo'nalishda rejalashtirilgan chora-tadbirlardan biri: "Mahalla va oila masalalari vazirligini tashkil etish". U mahalladan tortib respublika darajasigacha qirq mingdan ortiq xodimni birlashtiradi. Vazir - "Mahalla" jamg'armasiga, vazirning birmchi o'rinbosari - "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab- quvvatlash" jamoat fondiga, Keksalar va faxriylar bo'yicha o'rin- bosar "Nuroni" jamg'armasiga raislikni ham bajaradi. Bunda vazir- ning birinchi o'rinbosari oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalarga, vazirning yana bir o'rinbosari keksalarni ijtimoiy rag'- batlantirish, yoshlarda vatanparvarlikni mustahkamlash masalalariga mas'ul bo'ladi. Oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalariga mas'ul vazirlik rahbarining o'rinbosari lavozimi joriy etiladi. Vazirlikning hududiy boshqarma va bo'limlari boshliqlari bir vaqtda tegishli hokimning o'rinbosari hisoblanadi. Bu kabi qilinayotgan sa'y-harakatlar Vatanimiz ravnaqi, farzandlarimiz kelajagi, porloq istiqboli uchun xizmat qilishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 30-sent- abrdagi PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori va O'zbekis- ton Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil, 21-noyabr 2- MX-son buyrug'i asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kuzatuv kengashi ish boshladi.

Kuzatuv kengashi raisi ota-onalardan, kengash kotibi maktab o'qituvchilaridan, a'zolari maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog- lari, ota-onalar, mahalla vakillaridan tashkil topdi. Bu esa maktab - gacha ta'lim tashkilotining yanada ravnaq topishi uchun ayni muddao bo'ldi. Kuzatuv kengashi maktabgacha ta'lim tashkilot- larida bo'ladigan ta'lim-tarbiya jarayoni, uning moddiy texnik bazasi, tarbiyalanuvchilarga yaratilgan qo'shimcha xizmat turlari, bolalarni sifatli ovqatlantirishni, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gi joriy ta'mirlash ishlarida, hattoki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarini saylashda o'z tavsiyasini berish huquqiga ega bo'ldi. Mahalladagi kam ta'minlangan oilalarni o'rganib chiqib, ularning farzandlariga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim- tarbiya olish imkonini yaratdi.

Bolalarni maktabgacha ta'lim davridayoq maktabga sifatli tayyorlash, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining beshta sohasi bo'yicha rivojlantirish, ta'limning yangi shakllari zamonaviy-innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya berish amalga oshirilmoqda. Bola rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola alohida noyob va takrorlamasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularni o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir jihatlar, ya'ni bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ularning ijtimoiy va hissiy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi va ota-onaning, mahallaning o'rnini shundan iboratki, bolalarning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini hisobga olgan holda ularga maqsad qo'yishi, bolalarning tabiiy qiziqishlarini qo'llab quvvatlashi, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishlari kerak. Maktabgacha ta'lim sohasidagi salmoqli islohotlar qatorida shuni ham aytish kerakki, "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ularning ta'lim olishlari, qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rnini va javobgarligi oshirildi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi, uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqardi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi qonunida ham bolaning qonuniy vakillari va pedagoglarning huquq va majburiyatlari, ular o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, uni amalga oshirishda mahalla, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda ota-onalarning vazifalari, ularning o'zaro hamkorligi masalalariga e'tibor qaratilgan.

### **38-modda. Bolaning qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari**

Bolaning qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

- bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- o‘z bolasi uchun maktabgacha ta’lim shaklini va ta’lim olish tilini tanlash;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari ma’muriyatidan maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlar ta’minlanishini talab qilish;

- maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolani rivojlantirish, unga maktabgacha ta’lim va tarbiya berish masalalari yuzasidan davlat organlariga murojaat qilish;

- bolaga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni talab qilish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishida ishtirok etish;

- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining kuzatuv kengashi tarkibini saylash va unga saylanish.

Bolaning qonuniy vakillari qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Bolaning qonuniy vakillari:

- bolaning jismoniy sog‘lig‘i, ruhiy holati haqida qayg‘urishi, uning tabiiy qobiliyatlari, ishtiyoqlari va iste’dodlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

- bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim va tarbiya olishiga ko‘maklashishi yoki uning oilada ta’lim va tarbiya olishini ta’minlashi;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni boshqa ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘cini hurmat qilishi;

- bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashi;

- oilada bolaning har tomonlama rivojlanishi, ta’lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi shart.

Albatta, hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan qaror va farmonlar ota-onalardan tortib, mazkur sohaga mutasaddi bo'lgan barcha tashkilotlar, ularning xodimlaridan bola tarbiyasi hamda uning ta'lim olishiga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvni talab etadi.

Ota-onalar va tarbiyachi o'rtasidagi samarali hamkorlik orqali ota - ona va tarbiyachi o'rtasida o'zaro hurmat, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida yaqin aloqalar paydo bo'ladi, yaqin aloqalarni saqlab qolish uchun o'zaro kelishilgan holda davomli uchrashuvlar tashkil qilinadi, ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti tadbirlari va mashg'ulotlarga jalb etilishi ta'minlanadi, oila va bolaning kuchli tomonlariga diqqat qaratiladi va o'zaro hamkorlikda rivojlantiriladi, ota-onalar va tarbiyachi o'rtasida bola va oilaga tegishli axborot almashilganda, qat'iy ishonchga amal qilinadi. Hamkorlik qilishda ishonch juda muhim hisoblanadi.

### **Mahalla fuqarolar yig'ini va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligida:**

- maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoniga oid me'yoriy - huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflarni belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga kiritish;

- maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning ota-onalari orasida tegishli mutaxassislar (psixologlar, ijtimoiy xizmat tarbiyachilari va b.)ni jalb qilgan holda turli so'rovnomalar o'tkazib borish, shuningdek psixologik maslahatlar, treninglar tashkil etish;

- oila, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mahalla hamkorligining aniq samarasini ta'minlash;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish, tarbiyalanuvchilarga bilim olishi uchun (kasblarda yuqori natijalarga erishgan mutaxassislar, ya'ni pedagoglarni taklif etgan holda hayotiy misollar orqali) har tomonlama ko'mak berish;

- tarbiyalanuvchilarda kelgusi maktabgacha ta'limdan keyingi ta'lim maktab bilan o'zaro munosabatlarning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish;

- ota-onalarda kelgusida farzandlarining komil inson bo'lib



yetishishida, oilaviy va maktabgacha ta'lim hamkorligi farzandlari uchun eng yaxshisamara ekanligi kabi ko'nikmalarini shakllantirishda ko'p yil ta'lim-tarbiya jarayonida birgalikda tarbiyachilar bilan yelkadosh bo'lib, farzandlari bilan baxtli yashab kelayotgan namunali oilalar tajribasidan foydalanish;

- ota-onalar ongi va qalbiga farzandlarini ta'lim- tarbiya qilishda eng yuksak fazilatlar vatanparvarlik, insonparvarlik, kelajakka ishonch va intilish, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, ma'rifatparvarlik kabi fazilatlarni singdirish, ularda faol fuqarolik mas'uliyatini oshirish va ma'naviy immunitetni mustahkamlashga erishish;

- qonunchilik talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga mahallada ko'mak guruhlarini yaratish, farzanda tarbiyasida ularga ko'maklashish, noqobil oilalarning og'ir oqibatlari haqida o'z vaqtida tarbiyachilarini jalb qilgan holda oilalarga manzilli, muntazam tushuntirishlar olib borish (tarbiyachilar bilan hamkorlikda);

- maktabgacha ta'lim hamda mahalla tizimidagi islohotlar, yangiliklar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning doimiy ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda mahalla fuqarolar yig'inlarida yangilik burchaklarini tashkil etish hamda o'zaro axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, yangiliklarni elektron lavhalar, ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish va mutaxassislar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda barcha maktabgacha ta'lim sohasining quyi vakolatlari organlari faoliyati bilan bir qatorda hokimliklar va mahalla, oila bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlik ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilayotgani ushbu sohani yanada takomillashtirishda muhim va asosiy omildir. Biz buni keltirilgan chizmada ko'rishimiz mumkin:



Maktabgacha ta'lim vazirligi

---

Vazirlar mahkamasi

1

---

Viloyat maktabgacha ta'lim  
boshqarmasi



Tuman , shaxar maktabgacha ta'lim  
bo'limlari

---

Maktabgacha ta'lim  
tashkilotlari

Mahalla

Oila

Ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini tashkil etishning yangi shakllarini joriy etish hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning omilidir. "Bola- larni yordam va yordamsiz tarbiyalashga urinish oila tomon- dan barglarni yig'ish kabidir kuchli shamolda urmoq .... "

(A. V. Suxomlinskiy). Ota-onalarni hamkorlikka jalb qilish va ularni kreativ yondashishga o'rgatish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari o'zaro munosabatlarning turli shakllarini izlashi va amalda qo'llashi, har bir oilaga individual yondashishi , ularning urf-odatlarini, qobiliyatlarini va odatlarini hisobga olishi kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar,

tadbirlar, davra suhbatlari, savol- javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak.

Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti nafaqat bolaga ta'lim beradi, balki ota-onalarga bolalarni tarbiyalash masalalari bo'yicha maslahat beradi. Maktabgacha tarbiyachi nafaqat bolalarning tarbiyachisi, balki ularni tarbiyalashda ota-onalarning hamkori hisoblanadi. Ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida bola rivojlanishining yagona maydoniga jalb qilish muammosi uchta yo'nalishda hal etiladi:

ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish;

ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliy atiga jalb qilish;

tajriba almashish bo'yicha hamkorlikda ish olib borish.

**Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida samarali hamkorlik qilish yo'llari:**

- Ota-ona va tarbiyachi o'rtasida o'zaro samimiy hurmat.

- Hamkorlikni boshlashda oila va tarbiyachi o'rtasidagi muloqot usullarini kelishib olish.


- O'zaro kelishilgan doimiy uchrashuvlarni tashkil qilish orqali bolaning oilasi bilan yaqin aloqa o'rnatish.

- Ota-onalarning tajribasidan kelib chiqib, ularni maktabgacha ta'lim tashkilotidagi turli mashg'ulotlarga jalb etish.

- Oilalardagi madaniy xilma-xillikni hurmat qilib, mashg'ulotlar va tadbirlar orqali xilma-xillikni targ'ib qilish.

- Oila va bolaning kuchli tomonlariga diqqatni qaratish. Hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun avvalambor, muassasa o'z vaziyatini ko'rib chiqishi lozim va ota-onalar bilan ish olib borishda malakaviy majburiyatlardan bola iqboli va istiqboli y o'lida hamkorlik istagiga o'tishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari va oila hamkorligida bolada quyidagi qobiliyatlar rivojlanadi:



### **Ota-onalar bilan muloqotning noan'anaviy shakllari:**

Birgalikda dam olish, dam olish.

Ko'rgazmalarda ota-onalarning ishtiroki.

Ochiq eshiklar kunini tashkil etish.

Gazetalar nashri.

Mini kutubxona tashkil etish.

Seminarlar - mahorat darslari.

Pedagogik mazmundagi o'yinlar.

Ota-onalar olib boradigan kasblar haqida

darslar.

Ota-onalar bilan ishlashning turli shakllari o'zaro bog'liq bo'lishi va yagona izchil tizimni (ma'ruzalar, seminarlar, seminarlar, suhbatlar, maslahatlar va boshqalar) ifodalashi kerak.

Ota-onalarning tizimli ko'p tarmoqli pedagogik ta'limi ularni nazariy bilimlar asoslari bilan, ko'proq darajada bolalar bilan ishlash amaliyoti bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. O'quv-

pedagogik ishlarni amalga oshirish ota-onalarni pedagogika va psixologiya sohasidagi innovatsion g'oyalar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi.

**Ota-onalar yig'ilishi** - bu oila bilan ishlashning an'anaviy shakli. Ota-onalar bilan ishlash uslubimiz doimo o'zgarib turadi. Xabarlar, hisobotlar asosiy o'rinni egallagan an'anaviy ish shakllari samaradorligi pastligi, fikr-mulohazalarning etarli darajada bo'lmaganligi sababli o'z ahamiyatini yo'qotdi. Ota-onalarni o'z farzandini o'rganish, rivojlantirish va bilish jarayoniga jalb qilish uchun ota-onalar bilan ishlashning yangi, faol shakllaridan tobora ko'proq foydalanishimiz zarur.

**Ota-onalar yig'ilishlarida interfaol usullardan foydalanish.**

Ota-onalar bilan faol ishning asosi faol muhokama bo'lib, uning ishtirokchilari bahslashadilar, o'z xulosalarini bahslashadilar, muxoliflar bilan munozaraga kirishadilar, ya'ni aql va iste'dodlar raqobatlashadi. Psixologiya fanining fikricha, har bir jamoa turli xil o'ziga xos xususiyatlarga, yashirin imkoniyatlarga ega. An'anaga ko'ra, ota-onalar va tarbiyachilarining ota-onalar yig'ilishida o'zaro munosabati asosan og'zaki shaklda amalga oshiriladi - biri gapiradi, qolganlari tinglaydi. Yig'ilish doirasidagi o'zaro hamkorlik usullari doirasini kengaytirish interfaol usullardan foydalanish imkonini beradi. Interaktiv ota-ona usullari ishtirok etish va o'zaro ta'sir orqali ota-onani tarbiyalashni anglatadi.

**Anketa usuli** har bir oilaning ehtiyojlari, ularning kayfiyati va bolaning bog'chada bo'lishidan umidlari, oilada yuzaga keladigan bolani tarbiyalash va rivojlantirish muammolari haqida o'qituvchilar sifatida bizni qiziqtirgan ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. Bu uning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. So'rov o'tkazish, ushbu mavzu bo'yicha shaxsiy suhbatlar ota-onalar bilan ishlashni to'g'ri qurish, uni samarali qilish va oila bilan o'zaro munosabatlarning qiziqarli shakllarini tanlashga yordam beradi.

Zamonaviy sharoitlarda an'anaviy usullardan foydalanib ota-onalar bilan ishlash yetarli darajadagi natijani bermaydi (ota-onalar yig'ilishi, suhbatlar, maslahatlar). Interfaol usullar orqali ishlash 116

ota-onalarga o'z farzandlarini yaxshiroq o'rganishlariga imkon beradi (birgalikdagi loyihalar, master-klass, amaliy seminarlar, aksiyalar, prezentatsiya, ko'rgazmalar, birgalikdagi bayram ertaklari, sport tadbirlari). Tarbiyachilar bolalarni rasm chizishga, yasashga, o'ynashga va kitobni qanday o'qishga, bayramlarni qanday tashkillashtirishga o'rgatadi. Bunday yig'ilishlarni o'tkazish, ota-onalar fikrini bilish, ular bilan doimiy aloqada bo'lish mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va mahalla, oila hamkorligi ishlarini yana takomillashtirish bilan birga ota-onalarning farzandi ta'limi va tarbiyasiga kreativ yondashuvga o'rgatishda ham samarali xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari ota - onalar bilan hamkorlik mobaynida dastur talablariga tayanadi, ota - onalarning pedagogik layoqati va oilaviy tarbiya xususiyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya haqidagi kitoblarda berilgan maslahatlar, tavsiyalardan ijodiy foydalanadi. Tahlil va o'rganishlar natijasida ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tashkil etishda ham zamonaviy va ijodiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kelgusi faoliyatlarida ota-onalarni tashkilotga jalb qilishda ijodiy yondashuvni ya'ni kreativ kompetentlikni hamda kelgusida o'zlari hamkorlik qiladigan ota-onalarni ham bola ta'limi va tarbiyasiga kreativ yondashuvini shakllantira olish malakasini rivojlantirishimiz zarur.

**Ota-onalarni kreativ yondashuvga o'rgatishda faol hamkorlikning hozirgi zamonaviy ish shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:**

ota-onalar yig'ilishlarini tashkil etishning noan'anaviy shakllari;

mahorat darslari;

ota-onalar uchun bukletlar tayyorlash;

oila klubini tashkil etish va unga ota-onalarni jalb etish; ochiq eshiklar kuni;

qo'shma bayramlar, dam olish, o'yin-kulgi;

ota-onalarning oilaviy tanlovlarda, ko'rgazmalarda ishtirok etishi;

qo‘shimcha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish; birgalikdagi mehnat faoliyatini tashkil etish; stendlar, burchaklar, fotoko‘rgazmalarning vizual dizayni; maslahatlashuvlar; so‘rovnomalar o‘tkazish; shaxsiy suhbatlar va boshqalar.

An'anaviy ota-onalar yig‘ilishlari, maslahatlashuvlar kerakli samarani bermaydi, ota-onalar ko‘pincha ularda faqat rasmiy ishtirok etadilar. Ushbu tadbirlarning noan'anaviy shakllari ota-onalar uchun ko‘proq jozibador bo‘lsa-da, ular eng ko‘p qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun, ota-onalarga boshqa, zamonaviyroq aloqa shakllarini taklif qilish tavsiya etiladi.

### **An'anaviy bo‘lmagan ota-onalar yig‘ilishlari:**

An'anaga ko‘ra, yig‘ilishlarda biz ota-onalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni bolalar bog‘chasida va oilada tarbiyalashning vazifalari, mazmuni, usullari bilan tanishtiramiz. Ota-onalarning ota-onalar yig‘ilishlariga qiziqishini oshirish uchun yangilik elementini kiritish, tadbirni noan'anaviy, qiziqarli materiallar bilan to‘ldirish kerak.

**Mahorat darsi** maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va oila ishida organik aloqa va birlikni ta‘minlashning samarali vositasidir. Ota-onalarning maktabgacha ta‘lim tashkilotida pedagogik jarayonga qiziqishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ota-onalarga umumiy manfaatlar, birgalikdagi ishlab chiqarish faoliyati asosida bola bilan o‘zaro munosabat ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi. Ota-onalarga o‘z iste‘dodlarini ochib berish, ularning farzandi ta‘limi va tarbiyasiga kreativ yondashuvini shakllantirish imkonini beradi. Ota-onalarni maktabgacha ta‘lim muassasasi hayoti va faoliyati bilan tanishtiradi, maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini aholi o‘rtasida ommalashtiradi.

### **Loyiha faoliyati**

Bular ota-onalarning birgalikdagi loyihalari. Ushbu ish shakli ota-onalar va bolaning o‘zaro ta‘sirini o‘rgatadi, shuningdek, bolalarda loyiha ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga ota-onalarning ham ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, bu ular uchun, albatta, bolalarning boshlang‘ich maktabda foydali 118

bo‘ladi. Dizaynning asosiy vazifasi dasturni belgilash, keyingi maqsadli harakatlar uchun vositalarni tanlashdir. Loyihalar usuliga ega bo‘lgan tarbiyachi yoki ota-ona bolani dizayn qilishni o‘rgatishi mumkin.

### **Treninglar**

Ularni bir guruh **ota-onalar** bilan o‘tkazish mumkin. Bu o‘yinlar, mashqlar, suhbatlar majmuasidir. Bunday treninglardan ko‘zlangan maqsad - bola tarbiyasiga stereotipik yondashuvni o‘zgartirish, muammolarga yangicha qarash va ularni yengishdir.

### **Fotosuratlar va devor gazetalarini tayyorlash**

Devor gazetalarini chiqarish ota-onalar bilan ishlashning yaxshi an'anasiga aylanishi mumkin. Bunda bayramlar, tantanali tadbirlar uchun gazetalar chiqarish mumkin. Bolalar bilan birgalikda kelajakdagi gazeta uchun eskizlarni tayyorlash, tasvirlangan materialni tanlash lozim, bunda ota-onalar fotomaterial uchun javobgardir. Gazeta sahifalarida ota-onalar oilaviy tarbiya borasidagi tajribalari bilan o‘rtoqlashish, foydali maslahatlar berish, o‘z xohish-istaklarini bildirish imkoniga ega. O‘z tasavvurlarini ro‘yobga chiqarish uchun birgalikda harakat qilish lozim.

### **Bayramlar**

V.A. Suxomlinskiy shunday degan edi: “Bolalar bizning mehnatimiz bilan yaratilgan baxtdir. Darslar, uchrashuvlar, albatta, ruhiy kuch, vaqt, mehnat talab qiladi. Lekin, axir, farzandlarimiz xursand bo‘lsa, ularning ko‘zlari quvonchga to‘lganida biz ham xursandmiz. Shuning uchun, hech qanday holatda qo‘shma bayramlar kabi shakldan qochish kerak emas, chunki ular ota- onalarni birlashtiradi, bolalarni xursand qiladi, garchi ularni tashkil qilish qiyin bo‘lsa ham. Qo‘shma raqslar, qo‘shiqlar, o‘yinlar ham bolalar, ham ota-onalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

### **Oilaviy klublarni tashkil etish**

Oilaviy klub mashg‘ulotlarida ota-onalar bilan hamkorlik- ning turli shakllaridan foydalanish ularda ta'lim-tarbiya masalalari- ga qiziqishni shakllantirish, mavjud psixologik-pedagogik bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish- ga intilishni uyg‘otish imkonini beradi. Barcha shakllar bolalar va ota-onalar bilan ishlash quyidagilarga bo‘linadi: ota-ona va bola bilan



individual ishlash; mini-guruhlarda ishlash; ota-onalar bilan guruhda ishlash; ota-onalar va ularning farzandlari bilan guruhda ishlash. Ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik jarayonida klub ishining mazmuni o‘zgartirilishi va klub ish rejasiga kiritilishi mumkin. O‘quv yili davomida ota-onalarning o‘zlari klubning kelgusi yig‘i-lishlari uchun mavzularni taklif qilishadi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda ota-onalarni jalb qilish bilan bir qatorda ularga noan'anaviy vazifa- lar, ijodiy topshiriqlar berish hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga ularni to‘liq ta'minlash nafaqat maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, balk iota-onalarga hamkorlik faoliyatiga kreativ yondashuvini ham rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, “Ota-onangga rahmat!”, “Odo- bingga balli!”, “Sog‘ tanda sog‘lom aql”, “Jajji go‘zal”, “Balli yigitlar”, “O‘g‘lim - posbonim”, “O‘zbekiston - Vatanim mening!”, “Milliy burch va mas'uliyat”, “Oila etikasi”, “Oila tinch - mahalla tinch”, “Askarlik - yigitlik maktabi”, “Oila baxti - Vatan baxti”, “Sport va oilam”, “Oilamiz an'analari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Biz kimmiz?” kabi mavzularda bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, turli mavzularda boshqa tadbirlarni o‘tkazib turish zarur. Masalan, “Namunali oilalar”, “Kasbim - faxrim mening”, “Inson va tabiat”, “Inson va salomatlik”, “Inson va huquq”, “Oila - muqaddas tushuncha”, “Oilaviy an'analari”, “Mahalla va oila ma'naviyatining mustahkamligi”, “Ota va ona - oila tayanchi”, “Oilada sharqona sadoqat”, “Farzand - oila faxri” va shu kabi boshqa bir qancha mavzularda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikda tadbirlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

## **UMUMIY XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim yo‘nalishi talabalari va o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta'lim mazmuniga, o‘qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalari hamda ta'lim va tarbiya jarayonida talabalar va o‘qituv- chilar orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o‘zgarishlar

kiritishni taqozo etadi. Shunday ekan, ushbu uslubiy qo‘llanma bo‘lajak maktab- gacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning optimal variantini ishlab chiqishga, talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish- ning metodlari, tamoyillari va ilmiy- nazariy jihatdan pedagogik shart- sharoitlarni belgilab olishgda mustahkam didaktik asos bo‘la oladi.

Shuningdek, bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va bu sohadagi tadqiqot ishlariga qo‘yilgan zamonaviy talablarning asosiy tamoyillari shakllantirildi va shular asosida bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning metodologik asoslari, mazmuni, shakli va vositalari ishlab chiqildi.

Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning metodlari va texnologiyasi takomillashtirildi;

Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning qulay va samarali metodlari yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu sohada olib borilgan ilmiy-izlanishlarimiz natijalariga asoslanib yakuniy xulosa sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin, bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda va ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida kreativ va innovatsion yondashuvlarni joriy etish malakasini oshirishda im-fan va zamonaviy texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlardan foydalangan holda yanada takomillashtirish uchun:

1. maktabgacha ta‘limni tashkil etishning jahon standartiga javob beradigan mutaxassis uchun kreativlikni aniqlash va rivojlantirish mezonlarini tahlil qilish;

2. oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining ijodiy qobiliyatlarini e‘tiborga olib, ularni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatish;

3. ta‘lim jarayonida ijodiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan

metodlardan foydalanish, bo'lajak tarbiyachilarini kreativ pedagog sifatida shakllantirish;

4. bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ kompetentligimi rivojlantirishda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashda bo'lajak mutaxassislarda kreativ yondashuvni shakllantirish;

5. oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda AKTdan samarali foydalanish;

6. "Ilk qadam" davlat dasturi talablariga asoslangan zamonaviy ta'lim muhiti komponentlarining integratsiyasi asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilari uchun bir qator kognitiv vazifalar bilan belgilanadigan integral yondashuvni tashkil etish;

7. bo'lajak tarbiyachilarining kelgusida kasbiy faoliyatlarida zamonaviy didaktik vositalar, o'quv-metodik vositalar, multimedia vositalari, elektron-o'quv vositalari yordamida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga kreativ yondashuvga o'rgatish;

8. bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga bo'lgan kreativ yondoshuvi ota-onalar bilan ishlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining alohida ish shakllarini o'rganish, ota-onalarni ta'lim tarbiya jarayonlarida kreativ yondashishga o'rgatishning tashkiliy amaliy ishlarini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Demak, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda yuqorida qayd etilgan metodologik asoslar negizida innovatsion-integrativ ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida tarkib topsa, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ pedagog sifatida shakllantirish mumkin bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasi, 1992-y, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonun // Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. - T.:

Istiqlol, 2019. - B. 3-8b

3. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son qarori. 29.12.2016.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017- yil 19-iyuldagi «Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 528- son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-son Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF- 5264-son “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to‘plami. - T., 2017. - B. 39.

9. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: «O‘zbekiston», 2017. - 104 b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-sonli qarori. 2017 yil.

11. Maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 16-apreldagi “Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari faoliyatini baholashning namunaviy reyting tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 84-son buyrug‘i.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ qarori, 13.05.2019-yildagi 391-son.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 19-iyuldagi «Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 528-son Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori.

17. 2019-yil 11-iyundagi “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 487-son qarori.

18. «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. Bolaning qonuniy vakillari va pedagoglarning huquq va majburiyatlari. - Toshkent.: 2019-yil “Xalq so‘zi” gazetasi.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” gi Farmoni. www.lex.uz.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Abdullaeva N.Sh “Kelajak sari ilk ta’lim bilan” variativ dasturi. -T., 2020 y.

2. Abdullaeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. - Farg‘ona: FarDU, 2008. Октябрь 2021 Международная конференция академических наук, с 61.

3. Abduzazizova Byeronika. Formirovaniye kreativnogo pedagoga / Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga innovatsion

yondashuv, - Namangan, 2012. 90-92 b

4. Aribjanova A. R. Razvitiye kreativnogo potentsiala pedagogicheskogo sostava VUZa v usloviyax informatizatsii obrazovaniya. Avtoreferat, 13.00.01.

5. Antonova N.A. "O'qituvchining ijodkorligi muttasil sohaning rivojlanishi va maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy o'ylashi uchun zaruriy shart". Sorochinsk, 2018.

6. Altshuller, G. S. Tvorchestvo kak tochnaya nauka / G. S. Altshuller, A. B. Selyutskiy. - Petrozavodsk: Skandinaviya, 2010. - 208 s

7. Акулина, Н. А. Развитие творческих способностей детей младшего школьного и старшего дошкольного возраста в системе дополнительного образования / Н. А. Акулина // Изобразительное искусство в школе. - 2014. - № 5. - С. 62-70.

8. Баришева Т.А., Жигалов Й.А. психолого-педагогические основы развития креативности - спб.: спгутд, 2006.

9. Беликова, А. А. Педагогические условия развития творческих способностей у детей старшего дошкольного возраста / А. А. Беликова // Образовательное пространство: проблемы, достижения, перспективы: материалы Всерос. науч.-практ. конф., 01 февр. 2019 г. / Шадрин. гос. пед. ун-т. - Шадринск : [б. и.], 2019. - С. 38-42.

10. Do'monova N.M, Bolalar hamda ota-onalar loyihalari - maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila hamkorligining zamonaviy shakli, Maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari ADU 23-APREL, 2021 242-244.

11. Djanpeisova G.E, I.V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak «Ilk qadam». Maktabgacha ta'lim muassasalari davlat o'quv dasturi.- T.: MTV, 2018. - 69 bet.

12. Egamberliyeva N., Xodjaev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: —Fan va texnologiya, 2013.

13. Epstein, R. (2005). Generativity theory and creativity. In M.A. Runco & R.S. Albert (Eds.), Theories of creativity (Rev. ed.).

Cresskill,NJ: Hampton Press

14. Erkaboyeva N,SH, Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisini tayyorlashga zamonaviy yondashuv, Maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari ADU 23-APREL, 2021 18-21.

15. Hamidova M va boshqalar. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning kamolotida yangicha yondashuv va uni targ'ib qilishda jamoatchilik ishtiroki" . T.: "O'qituvchi", 2014, 252 b.

16. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. Avtoref. - T., 2017.

17. Ikramov Shuxrat Erkinovich, "Maktabgacha Ta'limda - Kreativlik Tushunchasi" Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, January 20, 2022, 28 b.

18. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. - T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. - 81-b.

19. Irisova S.R., Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati, "Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur uyg'unligi masalasi: muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2020-yil, 20-may) materiallari, 75 b.

20. Исянова А.Р. Развитие креативного потенциала педагогического состава ВУЗа на основе профессионального содержания образования. Ташкент: Навруз 2014. 187 с.

21. Kadirova G. X O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati va innovatsion fiklashini rivojlantirish aspektlari. Maktabgacha ta'lim- da davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.tdpu: - 2019.-b. 221-224.2019

22. Kreativnost' i psikhologicheskie osobennosti studentov-volonterov: Psikhologiya tvorchestva i kreativnosti (Russian Edition) Paperback - February 22, 2012.

23. Креативность как ключевая компетентность педагога.

Монография / Под ред. проф. М.М. Кашапова, доц. Т.Г. Киселевой, доц. Т.В. Огородовой. Ярославль: ИПК «Индиго», 2013. - 392 с.

24. Lutfullaev M., Fayziev M. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni // Kasb-hunar ta'limi j. - T.: 2002. №5-6. B- 25.

25. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi. 3- modul. -T., 2008.

26. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. -T., 2017.

27. Marasulov B, Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish, Maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari ADU 23-APREL, 2021 278-280.

28. Markovskaya I. M. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rgatish // SPb ., 2006.

29. Meliyev X, Buranova Sh. Mahalla, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorlik tizimi ishlarini takomillashtirish. //Monografiya. Jizzax.: Tahririy-nashriyot bo'limi 2021. 108-b.

30. Muslimov N., Abdullaeva Q., M., Mirsolieva M., "Pedagogik texnologiyalar" fanini o'qitish bo'yicha o'quv metodik-majmua (pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "Kasb ta'limi" ta'lim yo'nalishi uchun). - T.:"Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. - 252 b.

31. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. - T.: «Fan», 2004.

32. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T., 2015.

33. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

34. Nosirova V.Sh, Ilg'or pedagogik texnologiya va integratsiya asosida o'qish darslarining noan'anaviy usullari, "Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur uyg'unligi masalasi:muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn



konferensiyasi (2020-yil, 20-may) materiallari, 91b.

35. Pozilova Sh, “ Oliy ta'lim muassasasi o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida kreativ o‘qitish metodikasi”, 13.00.05-kasb hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi”, (PhD)avtoreferat,Toshkent,2019.

36. Pozilova SH.X, Zokirova F,M, Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik modulidan ma'ruza matnlari, Uslubiy qo‘llanma, \_T:TATU. 2018. 72 b.

37. Qodirova F va boshqalar.”Maktabgacha pedagogika”- T.:”Ma'naviyat” 2013 yil,160 b.

38. Рой А.Дж. Креативное мышление / Пер.с.англ. В.А.Островкого. М.: НТ Пресс, 2007, 176 с.

39. “Sifatli maktabgacha ta'lim-bola kelajagining poydevori” T.: 2014 y 14-bet

40. Solomennikova O.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi // Pedagogik ta'lim va fan. - 2007. - No 3. - B. 4-5.

41. Suxova O.V. Sущност i struktura professionalnoy kompetentnosti rukovoditelya doskolnoy obrazovatelnoy organizatsii //Kazanskiy pedagogicheskiy jurnal. - Kazan. -2015. - S. 47.

42. Светлана викторовна, Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности тема диссертации и автореферата по вак рф 13.00.01, кандидат педагогических наук щенникова.

43. Timofeeva L.L., Berezhnova O.V. Maktabgacha ta'limni tashkil etishning o‘zgaruvchan modellari. - M .: Pedagogik ta'lim markazi, 2012 . 176 b.

44. Torrance E.P. Creativity and futurism in education: Retooling //Education. 1980 (b). V. 100. P. 298-311.

45. Tuning Educational Structures in Europe. Line 1. Learning Outcomes. Competences. Methodology. 2001 - 2003. Phase 1/ <http://www.relintdeusto.es/TuningProject/index.htm>.

46. Umnova M, Integratsiya doskolbnogo i nachalbnogo obrazovaniya, Maktabgacha ta‘lim sohasida ta‘lim samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari ADU 23-APREL, 2021..... 323-325 b.

47. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posboie. - Kirov: ANOO "Mejreginalno'y sITO", 2013. - 212 s.
48. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V. Maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim sifatini boshqarish: uslubiy qo'llanma. - M.: Airis-press, 2007. 192 b.
49. Volkova N. V. Muammolar va bolalar bog'chasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning zamonaviy shakllarini izlash // 2012 yil uchun 6-sonli maktabgacha ta'lim.
50. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogika». T., «Ilm ziyo», 2006.
51. Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining malakasini oshirish omillari // ta'lim jarayonida innovatsiya va integratsiya. xalqaro ilmiy to'plam materiallari. Toshkent, 2017. -b.-309-312.
52. Xurvaliyeva T. L. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish 13.00.08 - maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi pedagogika fanlari doktori (dss) dissertatsiyasi avtoreferati.
53. Yevgeniy Pavlovich I. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. : Piter; SPb.; 2009,
54. Захарова, О. Г. Развитие креативности дошкольника в научнопедагогических исследованиях / О. Г. Захарова // Актуальные задачи педагогики: материалы IX Междунар. науч. конф., июнь 2018 г, Москва.
55. Svetlovskaya N.S. Integratsiya uslubiy hodisa sifatida va uning o'qitishdagi imkoniyatlari haqida: N.S. Svetlovskaya // Boshlang'ich maktab. - 1999. - 5-son.
56. Шалаева Юлия Викторовна, Развитие креативности - главное условие развития творческих способностей педагога. Современные образовательные технологии как способ развития творческих способностей педагога: теория и практика. Сборник материалов регионального фестиваля. Г. Жирновск, 15 октября 2019 г.
57. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta'limida Talabalar ijod- korlik

qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. -T.: "Fan", 2005.  
- 140 b.

58. Sh. Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — T.,  
«Fan va texnologiya», 2008.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
1- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda olib boriladigan Davlat siyosati .....	5
2- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari .	13
3- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	31
4- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalari .....	52
5- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda AK texnologiyalari .....	62
6- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv .....	78
7- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy vositalar .....	99
8- mavzu. Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kelgusi faoliyatida ota-onalarni kreativ yondashishga o‘rgatishda tashkiliy amaliy ishlarni yo‘lga qo‘yish .....	107
Umumiy Xulosa.....	121
Foydalanilgan adabiyotlar.....	123

**N. I. SAYDULLAYEVA**

**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING  
KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH  
TEXNOLOGIYALARI**

**Toshkent - «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» - 2022**

Muharrir: Tex. SH.Kusherbayeva  
muharrir: SH.Mirqosimova  
Rassom: U.Ortiqov  
Kompyuterda E-mail: [tipografiyacent@mail.ru](mailto:tipografiyacent@mail.ru) Tel:  
sahifalovchi: N.Rahmatullayeva



**97-450-11-14, 93-381-22-07.**

**Bosishga ruxsat etildi . .2022.**

**Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Times New Roman» garniturasini.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i 8,75. Nashriyot bosma tabog'i 8,25.**

**Tiraji . Buyurtma № .**

**«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»**

**bosmaxonasida chop etildi.**

**Toshkent sh., Foziltepa ko'chasi, 22 b uy.**